



«KIMKI «SAYLOV O'TDI – SAFARBARLIK TUGADI», DEB O'YLASA,  
XATO QILADI. HAQIQIY SAFARBARLIK ENDI BOSHLANADI»

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



«MILLIY TIKLANISH»  
DEMOKRATIK  
PARTIYASINING  
IJTIMOIY-SIYOSIY  
GAZETASI

# Milliy tiklanish

1995-yil 10-iyundan chiqqan boshlagan [www.mt.uz](http://www.mt.uz) / [milliytiklanish2022@umail.uz](mailto:milliytiklanish2022@umail.uz)



6 oyda «Tashabbusli  
budjet»da

**16 MLN.**  
KISHI QATNASHGANI ROSTMI?

7-SAHIFA



**TUB  
BURILISH**

va ulkan  
o'zgarishlar davri

5-SAHIFA



## «HAR BIR KUN – BU IMKONIYAT, HAR BIR KUN – BU KELAJAK POYDEVORI»

DEGAN SHIOR BUGUNDAN BOSHLAB HAYOTIMIZ  
QOIDASIGA, HAR QAYSI RAHBARNING, BARCHA  
KALQ NOIBLARI, VAZIR VA HOKIMLARNING  
KUNDALIK FAOLIYAT DASTURIGA AYLANISHI SHART

2s

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida yangi saylangan Prezident Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi va unda belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar hamda dolzarb vazifalar atroficha muhokama qilindi.

## 2022 «HALOLLIK» PIRAMIDASI

-yili yashillik 2017-yildagiga nisbatan Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida 23, Yakkasaroyda 23, Shayxontohurda 26, Olmazor tumanida esa 33 foizga kamaygan. Tabiiyki, bunday misollarni respublikaning boshqa hududlaridan ham keltirish mumkin.



10s

## IVOJLANISH UCHUN ENG TO'G'RI TANLOV BO'LDI

Bog'chalarga bo'lgan ehtiyoj 2030-yilgacha 100 foizga qondiriladi. Maktab yetishmovchiligi muammosi esa etti yil davomida har yili 500 mingtadan o'quvchi o'rnini, jami 2,5 millionta qo'shimcha o'rin yaratish orqali hal qilinadi.

6s



## YANGI G'OYA

VA TASHABBUSLAR DAVRIGA QADAM QO'YDIK 4s

No 22  
(1210)  
2023-yil  
19-iyul,  
chorshanba

Adodi –  
7 331







Davlat xavfsizligini ta'minlash uchun chegaradagi askarlar shart-sharoitini yaxshilash qanchalik muhim bo'lsa, farzandlarimiz kelajagiga mas'ul bo'lgan pedagoglarga ham shunday qulayliklar yaratish muhim sanaladi.

BUGUNNING

## KECHAGI NATIJA,

**«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida yangi saylangan Prezident Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi nutqi va unda belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar hamda dolzarb vazifalar atroficha muhokama qilindi.**



Partiya Markaziy va hududiy kengashlari xodimlari, «Yoshlar parlamenti» a'zolari hamda mahalliy Kengash deputatlari ishtirok etgan yig'ilishda Prezident nutqidan kelib chiqib partiya, barcha darajadagi deputatlar hamda faol yoshlar oldida turgan ustuvor vazifalar, qilinishi lozim bo'lgan ishlar muhokama qilindi.

Partiya Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirov bu haqda chiqish qilar ekan, davlat rahbari o'z ma'ruzasida nomzodini qo'llab-quvvatlagan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan behad minnatdor ekanligini alohida e'tirof etganini ta'kidladi va bu partiyaga, barcha darajadagi deputatlik korpusiga katta mas'uliyat yuklashini qayd etdi.

– Partiyamizning milliy taraqqiyot va milliy tiklanish yo'lidagi maqsadlari hayotiylikini ta'minlashda amaldagi davlat rahbarichalik hech kim natijadorlikka erisha olmasligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu ma'noda, biz tarixiy g'alabaga erishdik, desak xato bo'lmaydi. Partiya elektorati bilan

kelishgan holda saylovda davlat rahbari nomzodini qo'llab-quvvatlaganimiz eng muhim va to'g'ri qaror bo'lganini Prezidentning tantanali marosimdagi nutqida belgilangan vazifalar ko'lami yana bir karra isbotladi, – dedi Alisher Qodirov.

Ma'ruzada keyingi yetti yilda xalqimiz turmush sharoitini yaxshilash, davlat taraqqiyoti yo'lida ulkan maqsadlar ilgari surilib, dolzarb vazifalar belgilandi. Har bir hudud uchun mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari ijrosini ta'minlash, bunga barcha birdek mas'ul bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Ayniqsa, milliardlab dollarga teng investitsion dasturlarni amalga oshirishda deputatlarga katta ishonch bildirildi. Ya'ni, xalq vakillari o'z hududi uchun ishlab chiqilgan dasturlar ijrosini nazorat qilishi, bu borada aholi e'tirozlari, fikr-mulohazalarini eshitgan holda ijro organlari bilan mavjud muammo va kamchiliklarni hal qilishda hamkorlik qilishi lozimligi qayd etildi. Chunki bugungi o'zgarishlar davrida



**Bu juda ulkan maqsad. Iqtisodiyotimizdagi bugungi o'sish ko'rsatkichini e'tiborga olsak, 12 yilda erishishimiz mumkin bo'lgan natijani kelgusi yetti yilda amalga oshirishdir. Bu mamlakatimiz iqtisodiyoti yiliga 7-8 foizga o'sadi degani. Davlat rahbari qayd etganidek, bu yo'lida aniq hisob-kitoblarimiz, real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslarimiz, intellektual va ma'naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli.**

barchani eng avvalo, Vatan, el-yurt manfaati hamda farzandlar kelajagi birlashtirib turadi.

Partiya rahbari ushbu fikrlarni ta'kidlar ekan, yana bir bor «Milliy tiklanish» ramzidagi Semurg' qushiga to'xtaldi. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asaridan olingan bu qush birlashish ma'nosini anglatadi. Ya'ni, partiya O'zbekiston yagona ekanini, g'oyalar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar yagona maqsad – faqat O'zbekiston taraqqiyoti va xalq farovonligiga erishish ekanini doimo ta'kidlab keladi. Aslida ham shunday bo'lishi kerak.

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan – deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurtdoshimizdan belni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan-da ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi.

– Ushbu fikrda har birimiz o'zimiz uchun chiqarishimiz lozim bo'lgan xulosa bor, – dedi partiya yetakchisi. – Belni mahkam bog'lash

degan gap tagida qanday ma'no borligini barchamiz bilib-anglab turibmiz. Har bir fraksiya a'zosi o'z okrugidagi mahalliy kengash deputatlari boshini bir joyga qovushtirib, bir jamoa bo'lib, qolaversa, shu joydagi partiya tashkiloti, elektorat, xayrixohlar bilan birga o'sha hududda amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashga hissa qo'shishi lozim.

Shu ma'noda, oldimizda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-gumanitar sohalarida tub burilish hamda ulkan o'zgarishlar davri bo'ladi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi. Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, endi yangi davrni eski gaplar bilan o'tkazib bo'lmaydi. Deputatlar xalq vakili sifatida mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa qo'sha olishi, odamlarning turmush sharoitlari yaxshilanishi uchun qanday

taklif va tashabbuslarni ilgari surishi haqida har kuni, har daqiqada o'ylashi, bosh qotirishi lozim. Bu turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, qaysidir deputat vakolati doirasida o'z saylovchilari muammolarini hal qilish uchun mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda nimanidir o'zgartirishi mumkin. Qonunning bitta moddasi yoki normativ-huquqiy hujjatlariga takliflar berish orqali, fraksiyada qandaydir tashabbuslarni ilgari surish bilan ham islohotlarga hissa qo'shishi mumkin. Eng asosiysi loqayd, e'tiborsiz bo'lmagim kerak. Bugun eng katta dushmanimiz loqaydlikdir. Ya'ni, sen menga tegma, men senga tegmayman qabilida ish yuritishdir.

Biz o'tmishdan, kechagi tariximizdan, yo'l qo'yg'an xato va kamchiliklarimizdan zarur xulosalar chiqarib, O'zbekistonimizning dunyodagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirishimiz, Vatanimiz shuhrati va shon-sharafini hamma jabhalarda munosib va mardona himoya qilishimiz kerak.

## BIZ O'ZIMIZ O'ZGARMASAK, ATROFIMIZ O'ZGARMAYDI.

Ya'ni, o'zgarimasak chekkadan kelib hech kim bizni o'zgartirmaydi. Aksincha, o'zgarimasligimizdan manfaatdor kuchlar ko'payadi. Afsuski, bunday kuchlar hozir ham kam emas.



Davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy davlat konsepsiyasi mohiyatini to'g'ri anglamog'imiz lozim. Bu sotsialistik g'oya emas, bu davlat barcha odamlarning muammolarini hal qilib beradi, barcha og'irliklarni o'z zimmasiga oladi degani emas. Bu – davlat tadbirkorlikni, odamlarning ko'p daromad olishini qo'llab-quvvatlaydi va bunday fuqarolarni aholiga ijtimoiy ko'mak berishini rag'batlantiradi.

# KECHAGI QARASH VA MEZONLAR

ENDI TARIX



Haqiqatan ham o'tmishda juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yildi. Xalqimiz mustaqillikdan oldingi bunday xatolardan haligacha jabr chekmoqda. Biz hamon boqimandalik kayfiyatidan ham qutila olmayapmiz. Aslida har bir kishi o'z hayotiga o'zi mas'ul bo'lmog'i lozim. Davlatning asosiy vazifasi odamlarning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlab, shart-sharoit yaratishdan iborat. Qaysidir qonun xalq talabiga javob bermayotgan bo'lsa, uni o'zgartirish deputatlarning vazifasi. Kimdir kelib shu ishni mening o'rnimga bajarib beradi, davlat menga yordam berishi kerak, qiynalyapman, menga emas, qo'shningma ko'proq yordam berilyapti, degan qarashlar bu eski davr mafkurasi qoldiqlaridir. Afsuski, bu ong ostiga singib ketgan illat bo'lib, bugun ham ko'pchilik ana shunday kayfiyatda yashamoqda.

Shu ma'noda, davlat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan ijtimoiy davlat konsepsiyasi mohiyatini to'g'ri anglamog'imiz lozim. Bu sotsialistik g'oya emas, bu davlat barcha odamlarning muammolarini hal qilib beradi, barcha og'irliklarni o'z zimmasiga oladi degani emas. Bu – davlat tadbirkorlikni, odamlarning ko'p daromad olishini qo'llab-quvvatlaydi va bunday fuqarolarni aholiga ijtimoiy ko'mak berishini rag'batlantiradi. Mana haqiqiy ma'nodagi ijtimoiy davlat asosi.

Partiya pedagoglarni tayyorlash tizimini to'la davlat grantiga o'tkazish taklifini ilgari surish orqali sotsialistik g'oyani qo'llab-quvvatlagani yo'q.

Davlat xavfsizligini ta'minlash uchun chegaradagi askarlar shart-sharoitini

yxshilash qanchalik muhim bo'lsa, farzandlarimiz kelajagiga mas'ul bo'lgan pedagoglarga ham shunday qulayliklar yaratish muhim sanaladi. Bitta askar sotqin bo'lsa, qanchalik darajada davlatga xavf tug'ilishi ma'lum. Lekin bitta pedagog sotqin bo'lsa-chi? Yuzlab, minglab bolalarning tafakkuri zaharlanadi va u katta muammo bo'lib, milliy xavfsizlikka, jamiyatga tahdid sifatida qisqa muddatda o'zini namoyon qiladi.

Shundan kelib chiqib, pedagoglarni tayyorlash tizimi to'la davlat hisobidan amalga oshiriladigan bo'ldi. Endi «Milliy tiklanish» partiyasi, deputatlar ushbu tashabbus strategik maqsadlarga erishish uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor.

Ma'ruzada qayd etilganidek, kimki «Saylov o'tdi – safarbarlik tugadi», deb o'ylasa, xato qiladi. Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi. Chunki xalqimiz bizga ishonib topshirgan katta-katta reja va dasturlarni o'zimiz bajarmasak, ayting, chetdan kim kelib bajarib beradi? Kelgusi yetti yilga mo'ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishish uchun bizda barcha kuch va imkoniyatlar bor.

Shu o'rinda 11-iyul kuni davlat rahbari raisligida investitsiyalar jalb etishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan saylovdan keyingi ilk videoselektor yig'ilishiga to'xtalmoq lozim.

Ma'lumki, o'sha yig'ilishda keskin qarorlar qabul qilindi. Investitsion muhitini o'zgartira olmagan, tushunmagan hokimlarga nisbatan keskin choralar ko'rildi. Ayrim vazir va vazir o'rinbosarlar ishdan bo'shatildi, xayfsan berildi. Bu harakatlarimizni

tushunmayotgan, anglamagan, noto'g'ri baho berayotganlar oramizda bo'lmaydi, degan ma'nodagi signaldir. Bu barchaga saboq bo'lishi kerak.

«Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak poydevori» degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shart.

Konstitutsiyamizda muhlab qo'yilganidek, jonajon O'zbekistonimizni millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaromiz tinch va erkin, baxtli va farovon yashaydigan ijtimoiy davlatga aylantiramiz. Jumladan, ta'lim va tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholini ichimlik suvi, energiya bilan ishonchli ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmalar ishini yaxshilash bo'yicha belgilab olgan vazifalarni albatta bajaramiz.

Davlat rahbari tomonidan ta'kidlangan bu fikrlar «Milliy tiklanish» partiyasi g'oyalarining poydevori, ustuvor vazifalari hisoblanadi. Ma'ruzada tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratib, yangi-yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadlarini ko'paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularning bandligini oshirish e'tibor markazida bo'lishi alohida ta'kidlandi.

Fraksiya yig'ilishida Nodir Tilavoldiyev ham so'z olib, Davlat rahbari ma'ruzasida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazishdek juda katta marra olinganiga

” Endi yangi davrni eski gaplar bilan o'tkazib bo'lmaydi. Deputatlar xalq vakili sifatida mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa qo'sha olishi, odamlarning turmush sharoitlari yaxshilanishi uchun qanday taklif va tashabbuslarni ilgari surishi haqida har kuni, har daqiqada o'ylashi, bosh qotirish lozim.

to'xtaldi va ta'kidlanganidek, bunga erishish, albatta, oson bo'lmagligini qayd etdi.

– Bu juda ulkan maqsad. Iqtisodiyotimizdagi bugungi o'sish ko'rsatkichini e'tiborga olsak, bu 12 yilda erishishimiz mumkin bo'lgan natijani kelgusi yetti yilda amalga oshirish deganidir. Bu mamlakatimiz iqtisodiyoti yiliga 7-8 foizga o'sadi degani. Davlat rahbari qayd etganidek, bu yo'lda aniq hisob-kitoblarimiz, real imkoniyatlarimiz bor. Tabiiy boyliklarimiz, mehnat resurslarimiz, intellektual va ma'naviy salohiyatimiz, ish tajribamiz yetarli, – dedi Nodir Tilavoldiyev.

Fraksiya a'zolari Jahongir Abdurasulov, Umid Jabborovlar ham Davlat rahbari ma'ruzasida parlament, deputatlar faoliyatini yanada jonlantirish bo'yicha ilgari surilgan tashabbus va g'oyalar haqida o'z fikrlarini bildirdi.

Yig'ilishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi «Yoshlar parlamenti» raisi Shahnoza Joldasova ham so'zga chiqib, natqda yoshlarga alohida murojaat bo'lganini va bundan barcha yoshlar tegishli xulosa

chiqarib, el-yurt koriga yarashda, yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni barpo qilishda, yurtimiz, xalqimizni kelajakda rozi qilishda bor imkoniyatini ishga solishlariga ishonch bildirdi.

Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o'zgartirildi, uning qalbida o'ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo'lgani – bu bizning eng katta yutug'imiz. O'zini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy muhitni ham o'zgartira oladi, o'z murod-maqsadlariga albatta yetadi. Mana shunday ulug' e'tiqod bilan yashayotgan xalqqa rahbar bo'lib, uni yorug' manzillar sari boshlash men uchun ulkan baxt, ulkan sharafdur.

– Davlat rahbarining bu fikrlari partiyaning «Inson o'zgarasa, jamiyat o'zgaradi» degan g'oyasi bilan hamohang, – dedi Alisher Qodirov yig'ilish yakunida. – Biz o'zimiz o'zgartirib, atrofmiz o'zgartirmaydi. Ya'ni, o'zgartirib chikkadan kelib hech kim bizni o'zgartirmaydi. Aksincha, o'zgartirib chikkadan manfaatdor kuchlar ko'payadi. Afsuski, bunday kuchlar hozir ham kam emas.

Shu jihatdan, bundan tegishli xulosa chiqarib, birlashib, oldinga katta-katta qadamlar tashlab, adolatli qarorlar qabul qilib, xatolarni tan olib, uni bartaraf etishga hissa qo'shmog'imiz, har ishdida fidoyi bo'lishimiz lozim. Shundagina oldimizda turgan ulkan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib, Vatanimizning katta bir rivojlanish yo'lga chiqib olishiga asos yaratamiz.

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish»  
muxbiri





# YANGI G'OYA

## VA TASHABBUSLAR DAVRIGA QADAM QO'YDIK

**” Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishi munosabati bilan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqini eshitib, "hozir qayerdamiz va yetti yildan keyin qayerda bo'lishimiz kerak" degan savolga javob topgandek bo'ldim.** Ushbu ma'ruza jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy jabhalari hamda xalqaro munosabatlarni ham qamrab oldi. Ma'lumki, bugungi dunyo shu

darajada tez rivojlanmoqdaki, jarayonlarni oldindan tahlil qilib bo'lmay qolyapti. Shu sababli, Prezidentimiz bunday og'ir va tahlilali vaziyatda xalqimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'l – samarali ichki va tashqi siyosat yo'lini aniq belgilab olishimiz va uni qat'iy amalga oshirishimiz lozimligini bejiz ta'kidlamadilar. Bundan tashqari, islohotlarning ta'sirchanligi va bardavomligini ta'minlash uchun barcha birgalikda kelajakka ishonch bilan intilishi, butun diqqat-e'tibor

markazida turgan vazifalarni hal etishga qaratilishi, xalq kutayotgan, davrning o'zi talab etayotgan yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surish lozimligiga ham alohida e'tibor qaratildi. Chindan ham keyingi yillarda biz qo'rquv va hadiklardan xalos bo'ldik. Dunyo bizga, biz esa dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar orttirdik. Yuksak irodemiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor

millat bo'lib maydonga chiqdik. Fikrimcha, yuksak marralarga erishish uchun hayot barchamizni o'zimizni isloh qilishga, tashabbus ko'rsatishga, zamon bilan hamnafas bo'lishga undamoqda. Bu esa bizni xalqimiz oldidagi burchimizni bajarishda ikki karra mas'uliyatliroq bo'lishni taqozo etadi.

**Jahongir ABDURASULOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

### HAQIQIY

# SAFARBARLIK ENDI BOSHLANADI

**” Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi uchrashuvlarida har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan dasturiy maqsad va vazifalar nihoyatda to'g'ri belgilangani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.**

Prezidentimiz tantanali qasamyod qabul qilish marosimida shu haqda gapirib, saylovning ertasigayoq belgilab olingan ulkan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy harakatlar boshlanganini, sababi vaqt, hayot kutib turmasligini alohida ta'kidladilar.

– Kimki “Saylov o'tdi – safarbarlik tugadi”, deb o'ylasa, xato qiladi. Haqiqiy safarbarlik endi boshlanadi. Chunki xalqimiz bizga ishonib topshirgan katta-katta reja va dasturlarni o'zimiz bajarmasak, chetdan kim kelib bajarib beradi? – dedi davlat rahbari.

Yangi tarixiy bosqichni boshlab berishi ta'kidlanayotgan Prezident saylovida Shavkat Mirziyoyev bejizga 87,05 foiz ovoz olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanmadi. Bu xalqimizning amaldagi davlat rahbariga bo'lgan yuksak ishonchi in'ikosi edi.

Tan olish lozim, yurtimizda so'nggi yillarda barcha sohalarda xalqimiz intiq kutgan muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda va natijalarini odamlar allaqachon o'zlarining kundalik hayotlarida his qilib yashayapti.

**Tursunoy MURATOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi  
deputati



## ISLOHOTLAR KO'LAMI KENGAYIB, MAS'ULIYAT YANADA OSHADI

**” Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qasamyod qabul qilish marosimidagi nutqida tanlagan yo'limiz, boshlangan tub islohotlarimiz qaytmas xarakterga ega ekani yana bir bor ta'kidlandi.** Shu o'rinda “Saylov o'tdi – safarbarlik tugadi”, degan qarashlarga o'rin yo'qligi, islohotlar jarayoniga yangi kuch bilan kirishish zarurati uqtirib o'tildiki, bundan eng avvalo, biz siyosiy partiyalar vakillari to'g'ri xulosalar chiqarishimiz kerak. Ya'ni, xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, birlashib, bir bo'lib, islohotlarni mantiqiy yechimga ega bo'lishi, yetti yillik taraqqiyot dasturi

ijrosini ta'minlashga hissa qo'shishi kerak. Prezident nutqida ta'lim-tarbiya masalasiga yanada e'tibor qaratilib, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi vazifalarga urg'u berildi. Darhaqiqat, globallashev, tahlilali dunyo, biz uchun yot bo'lgan “ommaviy madaniyat”ning turli ko'rinishlari bu boradagi faoliyatimizni qayta ko'rib chiqishimizga, uni kuchaytirishimizga undamoqda.

**Tojiboy ROMANOV,**  
partiyaning  
Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Kengashi  
raisi



## TUB BURILISH

VA ULKAN  
O'ZGARISHLAR DAVRI

Prezidentimizning qasamyod qabul qilish marosimidagi nutqida "Milliy tiklanish" demokratik partiyasiga minnatdorlik bildirganidan ushbu partiya vakili sifatida nafaqat g'ururlandim, balki yanada ko'proq mas'uliyatni his qildim.

Ta'kidlash lozim, nomzodimizning saylovoldi dasturida belgilangan vazifalar bir partiya g'oyalari bilan emas, umumdavlat ahamiyatiga molik masalalar qamrab olingani bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, partiyamizning ustuvor vazifalari hisoblangan ta'lim-tarbiya, milliy qadriyatlarimiz, tilimiz, urf-odat va an'analarimizni saqlash, turizmni rivojlantirish bo'yicha belgilangan yo'nalishlar ijrosi fraksiyamiz a'zolaridan tortib, eng quyi bo'g'indagi deputatlarimizgacha juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Davlat rahbari ta'kidlaganlaridek, oldimizda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'ladi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi. Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi.

**Bahodir MAMATXONOV,**  
partiya Markaziy kengashi raisi  
o'rinbosari

YOSHLARGA  
YANADA KATTA  
ISHONCH  
BILDIRILDI

Prezidentimiz nutqida keyingi yetti yillikda ham asosiy e'tibor va ishonch yoshlarga qaratilishi bejiz ta'kidlanmadi, deb o'ylayman.

"Aziz o'g'il-qizlarim, bugun tarixning o'zi, zamonning o'zi sizlarning oldingizda beqiyos imkoniyatlar ochmoqda. El-yurt koriga avvalo kim yaraydi? Albatta, sizlar! Yangi O'zbekistoni, Uchinchi Renessansni kim barpo etadi? Albatta, sizlar! Yurtimiz, xalqimizni kelajakda kim rozi qiladi? Albatta, sizlar! Xalqimiz, Vatanimiz sizlarga ishonadi. Sizlar O'zbekiston tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan buyuk ishlarni amalga oshirishga qodirsiz. Yoshlik – g'animat, vaqt – g'animat, fursat borida otni qamchilang! Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yeting! Dunyoga o'z so'zingizni ayting! Izlanish va intilishdan aslo to'xtamang! Baxt va omad doimo sizlarga yor bo'lsin!" – dedi davlatimiz rahbari o'z nutqlarida.

Shunday ekan, O'zbekistonning buguni va kelajagini hal qilishga hamda yurtimizni dunyoga yanada tanitishda yoshlar Prezidentimiz atrofida birlashib, ajdodlarga munosib vorislar bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda, har bir amalga oshiriladigan islohotlarda albatta siz va bizning o'rnimiz muhim sanaladi.

**Elyorbek KELDIYOROV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi  
"Yoshlar parlamenti" a'zosi

## Kuting!

## Munosabat

## IJTIMOIY HIMOYA BOSH MASALADIR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishga bag'ishlangan tantanali majlisdagi nutqida yangi-yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadlarini ko'paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ular bandligini ta'minlash eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2023-yilning 4 oyida imkoniyati cheklangan fuqarolar bandligini ta'minlashga qaratilgan dastur asosida 5 ming nafar yurtdoshimiz bandligi ta'minlangan.

Yana bir misol. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ham alohida tizim joriy qilinib, moliyaviy instrumentlar, infratuzilma masalalari hal qilinishi natijasida har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so'm kredit va 1,5 trillion so'm subsidiyalar ajratilmoqda.

Bu sa'y-harakatlar tufayli o'tgan yili 1 million, 2023-yilning birinchi choragida 210 ming kishi kambag'allikdan chiqarilgan. «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari», «Temir daftari» va Ijtimoiy himoya reyestri orqali esa 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan vatandoshlarimizga moddiy yordam ko'rsatilgan.

Bu kabi ezgu ishlar zamirida odamlarni rozi qilish, hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, kasb-hunarga yo'naltirish, aholi daromadini oshirish maqsadi mujassamdir. Davlatimiz rahbarining nutqida ana shu yo'nalishdagi ishlar butunlay yangi bosqichga ko'tarilishi ta'kidlandi. Bu esa har birimizdan inson qadri va farovon hayoti uchun keyingi yetti yilga mo'ljallangan ulkan islohotlarni amalga oshirishda bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozimligini anglatadi.



**Sherzod QULMATOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati



**Minhojiddin MIRZO:**

**AJDODLARIMIZNING  
BOY MEROSI VA MILLIY  
QADRIYATLARIGA  
ASOSLANGAN KUCHLI  
MA'NAVİYATGA  
TAYANAMIZ**

Kelgusi sonlarda



## RIVOJLANISH UCHUN

ENG TO'G'RI

ANLOV  
BO'LDI

Tengsizlik va qashshoqlikning yangi global geografiyasi tobora kengayotgan bir paytda har bir davlatning chuqur o'ylangan o'z taraqqiyot strategiyalari bo'lishi lozim, albatta. Chunki dunyoda barchaga birdek mos keladigan umumiy yondashuvlar mavjud emas. Ammo so'nggi yillarda tez-tez kuzatilayotgan oziq-ovqat, neft, energetika sohaslaridagi moliyaviy-iqtisodiy muammolar hamma uchun birdek ta'sir qilayotgani bor gap. Bas, shunday ekan, bunday global voqe'lik O'zbekistonda ham yondashuvlarni kengaytirish va rivojlantirish uchun kuchli yetakchini tanlash va bir oila bo'lib oldinga intilishini taqozo qilayotgan edi.

Men prezidentlikka nomzodlarning dasturlarida aynan shu masalalarga alohida e'tibor qaratdim. O'zLiDeP tomonidan nomzodi ilgari surilgan va eng muhim pallada «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturi keng qamrovli va xalq hayoti farovonligi uchun barcha sohalarni ko'zda tutishi bilan ahamiyatli edi. Dasturda har bir viloyatning tabiati va aholi imkoniyatlaridan kelib chiqib turli xil yondashuvlar taqdim etish belgilangandi. Boshqa nomzodlarning saylovoldi dasturlaridan shu jihati bilan ham Shavkat Mirziyoyev keskin farq qildi. Dasturda shuningdek, ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor qaratilib, quyidagi maqsadlar kiritilgandi:

Bog'chalarga bo'lgan ehtiyoj 2030-yilgacha 100 foizga qondiriladi. Maktab yetishmovchiligi muammosi esa etti yil davomida har yili 500 mingtadan o'quvchi o'rni, jami 2,5 millionta qo'shimcha o'rin yaratish orqali hal qilinadi. Keyingi

etti yilda har bitta bog'chada kompyuter sinfi, har bitta maktabda esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasiga yetadigan ta'lim planshetlari bo'ladi, informatika fanini o'qitish esa 1-sinfdan boshlanadi. Barcha maktablarga xorijdan chet tili o'qituvchilarini olib kelish, chekka hududlarda bepul maktab avtobuslarini yo'lga qo'yish masalasi ham ko'pchilik e'tiborini tortdi.

Bundan tashqari, biotexnologiya, sun'iy intellekt va boshqa yuqori texnologik yo'nalishlarda yiliga 500 nafar iste'dodli yoshlar davlat granti asosida taqdim etilgan xorijiy oliygohlarda o'qitilishi, buning uchun yiliga 200 million dollar yo'naltirilishi ta'kidlandiki, bu shubhasiz, yosh saylovchilarni e'tiborsiz qoldirmadi. Kelgusi yetti yilda esa ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun 1 milliard dollar ajratilishi, iqtisodiy sohada 2030-yilgacha jon boshiga yalpi ichki mahsulotni hozirgidan 2 barobarga oshirib, 4 ming dollarga yetkazish maqsadlari qo'yilgani ham yaqin kelajakda O'zbekiston daromadining o'rtachadan

yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'shilishini anglatar edi.

Shuningdek, nomzod xorijiy hamkorlar bilan birga, umumiy qiymati 115 milliard dollar bo'lgan yirik loyihalar boshlanishini, xususan, Olmaliqda 3 ta mis boyitish fabrikasi va yangi mis eritish zavodi, Ohangaron misni qayta ishlash klasteri, Navoiy, Qo'ng'iro't va Qorako'lda yirik kimyopolimer klasterlari, Toshkent va Navoiy viloyatlarida fosforit xom ashyosidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonasi, Tebinbuloq va G'allaorolda temir ishlab chiqarish majmualari ish boshlanishini ta'kidladiki, bularning bari mamlakatga yangi texnologiyalar kiritilishini hamda yangi ish o'rinlari yaratilishini ko'rsatardi.

Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish kerak: Yevropa hamkorlik va xavfsizlik tashkilotining o'rganishlari shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi o'zaro bog'langan global iqtisodiy davrda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan ichki iqtisodiy

strategiyalar xalqaro hamkorlikni o'z ichiga olmasa, rivojlanish sekinlashadi. Bundan tashqari, keng ko'lamlil iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar bo'yicha va jamoaviy xalqaro sa'y-harakatlar orqali birbirini qo'llab-quvvatlovchi davlatlar oziq-ovqat tanqisligi va iqtisodiy inqirozni muvaffaqiyatli chetlab o'tishi mumkin. Guvohi bo'lganimizdek, davlatimiz rahbari tomonidan so'nggi yillarda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirildi va qator hamkorlikdagi loyihalar tashabbus qilindi. Buni eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatilishida va Maslahat kengashi tashkil etilishida ko'rish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, mening va qolgan vatandoshlarimning saylovdagi tanlovi va jami saylovchilarning 87 foizdan ziyod ovozi bilan erishilgan g'alaba Yangi O'zbekiston kelajagida yangi sahifalarni ochishiga ishonchim komil.

**Samandar ISMOILOV,**  
Angliyaning Lester  
universiteti talabasi,  
«El-yurt umidi»  
jamg'armasi stipendiati

Bosh prokuratura:

## TABIATGA 3,6 MILLIARD SO'MLIK ZARAR YETKAZILDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida yurtimizda yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish va bu orqali respublikamizda yashil maydonlarni ko'paytirish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramay ayrim shaxslar tomonidan daraxt va butalarni noqonuniy kesish, nobud qilish holatlari tez-tez uchramoqda. Masalan, Surxondaryodagi Bobotog' tizmasi hududida faoliyat yurituvchi «U.O.M.A.» mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasiga biriktirilgan tog' va tog' oldi hududlarida tabiiy holda o'suvchi tojik kavragi o'simligining 2 ming 421 tasi kartonlash orqali dimlangan va 81 tasi esa shirasini olish maqsadida kesilgan. Mazkur holat yuzasidan jamiyatning mas'ul shaxslariga nisbatan Jinoyat kodeksining 192 – 11-moddasi va 202-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Bosh prokuratura matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, 2023-yilning 6 oyida mamlakatimizda daraxt va butalarni noqonuniy kesish bilan bog'liq 2 mingdan ortiq huquqbuzarlik aniqlangan. Bu bilan tabiatga 3,6 milliard so'mlik zarar yetkazilgan. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 7 jinoyat ishi va 2 mingdan ortiq ma'muriy ishlar qo'zg'atilib, 1,7 milliard so'mlik zarar undirilgan. Tabiatga zarar yetkazish holatlarining oldini olish maqsadida targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Bosh prokuratura tomonidan shu mavzuda videorolik ham tayyorlangan.



N.ABDURAIMOVA, O'ZA



# OYDA «TASHABBUSLI BUDJET»DA 16 MLN.

## KISHI QATNASHGANI ROSTMI?

17-iyuldan boshlab «Tashabbusli budjet» loyihasing joriy yildagi ikkinchi mavsumiga start berildi. Unga ko'ra, birinchi bosqich – fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish jarayoni shu yilning 17-iyulidan 6-avgustiga qadar davom etsa, ikkinchi bosqichi – loyihalarni maxsus komissiya tomonidan saralab olish 6 – 26-avgust kunlari, yakuniy bosqich – 15-sentyabrga qadar esa loyihalarga ovoz berish jarayoni bo'lib o'tadi.

Budjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, shuningdek, Harakatlar strategiyasida

belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan «Ochiq budjet» yoki «Tashabbusli budjet» loyihasi nazarda, qo'shimcha ta'rifga muhtoj emas. Davlat rahbarining 2018-yil 22-avgustdagi «Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan ishlab chiqilgan ushbu loyiha haqida ayni kunlarda eshitmagan yurtdoshimiz kam topiladi.

Ta'kidlash lozim, «Tashabbusli budjet» ijtimoiy muammolarni hal qilish, bu borada aholining jamoaviy qarorlar qabul qilishi, jamoatchilik nazoratini yanada kuchayishi, deputatlar faollashuvi hamda davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishda haqiqiy ma'nodagi xalqona loyihaga

aylandi va bu bejizga emas.

So'nggi yillarda ayrim mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan budjet hisobidan qilinayotgan bo'lar-bo'lmas xarajatlar va bu boradagi qarorlarga ijtimoiy tarmoqlar orqali keskin noroziliklar bildirilayotgan edi. Budjet mablag'lari eng muhim ijtimoiy muammolarni hal etishga emas, balki ayrim mansabdorning o'zlari tanlagan loyihalarga yo'naltirish holatlari ko'paygan va bu aholining haqli e'tirozlarniga sabab bo'layotgandi. «Tashabbusli budjet» loyihasi esa bunday holatlarning payi qirildi.

To'g'ri, keyingi vaqtlarda jamoatchilik vakillari ushbu loyihaga nisbatan turli fikrlarni bildiriyaptilar. Kimdir «Tashabbusli budjet»ni qo'llab-quvvatlab, u yillar davomida hal qilinmagan muammolarni bartaraf etishda, odamlarning budjet mablag'ini, ya'ni davlat g'aznasida saqlanayotgan xalq pulini nazorat qilishida muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlasa, boshqalar loyihaning qoniqtirmaydigan jihatlari ko'pligini aytishmoqda. Xususan, ovoz yig'ishga majburlash, jarayonda o'z mahallasiga umuman aloqasi bo'lmagan fuqarolarning ovoz berish holatlari va bundan nisbatan aholisi oz bo'lgan hududlarning tanlovda g'olib bo'lish imkoniyati keskin pasaygani, targ'ibotdagi kamchiliklar yoki davlat o'zining majburiyatlarini aholiga tashlab qo'yayotgani, loyihalar ijrosi nazoratga olinmayotgani kabi e'tirozlar shular jumlasidandir.

Tegishli vazirliklar, mutaxassislar tomonidan bunday fikrlar o'rganilib, ularga munosabat ham bildirildi, kamchiliklar tan olinib, bugungi kunda ular ustida ishlanayotgani ma'lum qilindi. Davlat rahbari ham loyihaga munosabat bildirar ekan, «Tashabbusli budjet» aholining talab va takliflari asosida ijtimoiy infratuzilmadagi kamchiliklarni manzilli hal etishda, eng muhimi, kelgusi yildagi davlat budjetini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlab, aholi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlagan edi.

Ma'lumotlarga qaraganda,

shunday ishlar doirasida so'nggi uch yilda 9 ming 500 ta mahallaga 57 trillion so'm ajratilgan. Bu mablag'lar hisobiga 3 ming 500 ta mahallada ichki yo'llar, yana shunchasida bog'cha, maktab va shifoxona ta'mirlangan. 1 ming 19 ta mahallada ichimlik va oqova suvi ta'minoti yaxshilanib, 452 tasi zamonaviy qiyofaga keltirilgan. Inson qadri tamoyili asosida bu yil mahallalarga ajratilayotgan mablag'lar ko'lami 25 trillion so'mga yetkazildi. Xususan, «Tashabbusli budjet» dasturi doirasida 8 trillion so'm ko'zda tutilgan.

Birgina o'tgan yili ushbu maqsadlar uchun yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori 4 barobarga oshgan. Ya'ni, tuman, shaharlarda tasdiqlangan budjetlarning 5 foizining o'zi 1,5 trillion so'mdan ortiqroqni tashkil etgan. Qo'shimcha manbalarning 30 foizi ham «Tashabbusli budjet» uchun yo'naltirilgan.

Bu borada aholimizning faolligi ham oshgan. Masalan, 2021-yilda ushbu loyihaning ovoz berish jarayonida 1 million 200 ming kishi ishtirok etgan bo'lsa, bu yil birinchi mavsumning o'zidayoq ular soni 16 milliondan oshgan. Shuningdek, ilk marotaba «Tashabbusli budjet» dasturida respublikaning barcha mahallalari o'z loyihasi bilan ishtirok etdi. Shundan kelib chiqib, ushbu loyihalarga qo'shimcha 1 trillion 300 milliard so'm ajratilishi belgilandi.

Raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, «Tashabbusli budjet» aholining turmush farovonligini yanada oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, odamlarga munosib turmush sharoitini yaratishda, budjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, ushbu loyiha rivojlangan davlatlar tajribasidan ham muvaffaqiyatli o'tgan. Demak, aholidan davlat tomonidan berilayotgan bunday imkoniyatlardan to'g'ri, samarali foydalanib, loyihada faol ishtirok etish talab etiladi, xolos.

Jamshid QOSIMOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati

Kuting!

AZAMAT ZIYO:

# PREZIDENT

NUTQINING  
ASL  
MOHIYATI  
NIMADA  
EDI?

Kelgusi sonlarda



# AKADEMIK MELIBOVNING



**Ustozlarning tavsiyasiga ko'ra, o'qigan kitoblarni, ilmiy-tarixiy manbalar, turli yozishmalarda uchragan ta'sirchan fikrlarni yon daftarimga yozib qo'yishni odat qilganman. Fikrdan fikr unadi deganlaridek, ulardan suhbat va saboqlarimda foydalanib kelaman.**


Ma'rifatparvar bobomiz Alixonto'ra Sog'unuy shunday yozadilar: «Qaysi bir millatning ona tilisi o'z vazifasini o'tayolmay, boshqa yot tillar oldida mag'lubiyatga uchrab, ular oldida tiz bukar ekan, unday millat ko'p uzoqlamay, insoniy tuyg'ularidan ajragan holda hayot daftari ustiga inqiroz qalami chekilishi shubhasiz. Unday millatlar Vatanlaridan judo bo'lish bilan birga, butun borlig'icha tarix yuzidan yo'qolishga mahkumdur».

\*\*\*  
Fransuz olimi M.Bellin 1861-yilda yozgan kitobida ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning ona tiliga e'tiborini shunday baholagan ekan: «Alisher Navoiy o'z milliy tilining afzaliyatlarini inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etgani o'z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganidan dalolatdir». XVI asrda shoir Dyu Belle boshchiligida

eshitib, kim nima desa («o'p») deyishdan nariga o'tmay ulg'aysa, keyinchalik hayotda o'zini shaxs sifatida namoyon qilishga qiyinaladi, zaif nutqi fikrini ifodalashga yo'l bermaydi. Uni fikrlashga o'rgatish uchun yengil munozaralarga qo'shish lozim. Albatta, nutq o'z-o'zidan ravon bo'lib qolmaydi. Cholg'uchi biror kuyni o'rganmoqchi bo'lsa, uni yuz bor, ming bor ijro qilibgina muddaosiga erishadi. Musavvir bir asar yaratguncha qancha zahmat chekadi. Hech kim notiqlikda birdaniga Suqrot yoki Abdulla Qahhor darajasiga ko'tarilmaydi. Nutq mahoratini egallash uchun yillar davomida tinimsiz mashq qilish kerak. Qadimgi yunon notig'i Demofen o'zining past, hazin ovozi yaxshilashga jazm qilib, yerto'laga tushar ekan-da, shiftga o'tkir tig'li xanjarni osib qo'yib (boshini dimog'dorona baland ko'tarmaslik uchun) uzluksiz mashq qilgan ekan.

\*\*\*  
Behbudiy o'limi oldidan: «Turkiston bolalarini maktabsiz qoldirmang», deb vasiyat qilgan ekan. Oilada farzandlarni yoshligidan odob va hunarga o'rgatish, birovning mulkiga xiyonat qilmaslik, hamisha rost so'zlash zarurligini uqtirish o'tmish ajdodlarning qat'iy talabi bo'lgan. Bolalar halol va haromning farqini tushunib voyaga yetishgan. Hazrat Bahouddin Naqshbandning oldiga otalar farzandlarini o'qishga olib kelsalar, piri murshid ular biror-bir hunarni egallaganmi yoki yo'qmi – shuni so'rar ekanlar. Bordi-yu egallagan bo'lsa, «Farzandingiz avval hunar o'rgansin, qo'lidan bir ish keladigan bo'lsin, keyin olib keling», deb maslahat berar ekanlar.

\*\*\*  
Sotsiolog olim J. Fishman milliy-ma'naviy ildizlar zaiflashgan, xalqona an'ana va qadriyatlariga rioya qilish sustlashgan, ona tilining qo'llanilishi nisbatan kamaygan hududlarda jinoyi xatti-harakatlar ko'proq sodir bo'lishini ilmiy asosda isbotlab bergan.



\*\*\*  
Donishmandlar fikrini tiriklikning jon tomiriga qiyoslashadi. «Fikrlayotgan kishi yashashda davom etadi, fikrlashdan to'xtagan odamning umri ham to'xtaydi, endi u faqat mavjud bo'lib qoladi», deya bu achchiq haqiqatdan ogoh qilishgan. Fikr jamiyatni rivojlanish holatida ushlab turadi. Fikrlar xilma-xilligi, agar mavjud bo'lsa va bunga hech kim mone'lik qilmasa, mamlakat so'zsiz yuksalish yo'lga o'tadi. Fikr mudray boshlasa, jamiyat hayotida ham, odamlarda ham mudroqlik boshlanadi, beparvolik illati urchiy boshlaydi. Fikrsizlik illati sho'rolar saltanatidek qudratli tuzumning ildizini quritdi, millatni, uning ko'p munavvarlarini haybarakallachiga aylantirib qo'ydi. Sobiq tuzum bu holatni uzoq yillar davomli gulduros qarsaklar bilan xaspo'shlab keldi. Bu to'g'rida allomalarning shunday fikri bor: «Dunyoni fikrsiz, farosatsiz haybarakallachilar buzganichalik, boshqa hech kim buza olmaydi».

\*\*\*  
Braziliya qamoqxonalari kutubxonalar mavjud bo'lib, bitta kitob o'qib, uning ma'no-mag'zini chaqqan mahbusning jazo muddati 4 kunga qisqartirilgan ekan. Xitoyning ayrim viloyatlarida rahbarlar yil davomida bir necha badiiy kitoblarni o'qib, ularning ma'no-mazmunini tahlil qila olishlari talab etiladi.

\*\*\*  
Artur Shopengauerning ikki fikri: «Yo'lda o'rimalab borayotgan qo'ng'izni esi past bola ham bosib o'ldirishi mumkin. Ammo bu dunyoning jamiki buyuk daholari birlashib ham shu birgina qo'ng'izni qaytadan yarata olmaydilar», «Har bir bolada ma'lum darajada daholik bor, hamma daholarning fe'l-atvorida esa... bolalik ko'zga tashlanadi».

Xon Feruz davrida maqom kuylarini buzib ijro etgan mashhoqlar jazolangan. Pyotr I zamonida nutqi noraso kishilarga o'qituvchilik qilishga ruxsat berilmagan. Chunki ustoz nutqidagi nuqson u tarbiyalayotgan bolalarga ham o'tadi. Bugun nutqimizda kun sayin, har teleko'rsatuv sayin urchib borayotgan norasoliklar ertaga farzandlarimiz nutqiga ham ko'chishini bilib turib, bu muammoga befarq bo'lsak, o'nglab bo'lmas xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Negaki, o'nglash vazifasi bilan... nutqi chuchuklashib bo'lgan kishilar mashg'ul bo'ladilar.

\*\*\*  
Sadrididdin Salim Buxoriyning «Buxoro mavjlari» jurnalida e'lon qilingan Boyazid Bastomiy haqidagi tadqiqot maqolasini o'qib, g'aroyib bir faktga duch keldim. «Ninachi va chumoli» degan masalni bilmagani kishi yo'q desam, mubolag'a bo'lmaydi. Asarning muallifi rus adibi Ivan Krilov. Bu masal dunyo xalqlarining ellikdan ortiq tiliga, jumladan, o'zbekchaga ham o'girilgan. Ammo... Krilov janoblari ushbu masal sujetini... Boyazid Bastomiydan olgan ekan. Sharqning bu ulug' mutafakkiri muridlari bilan qilgan suhbatlarida umrning bir lahzasini ham behuda o'tkazmaslik zarurligini, vaqt o'tganidan keyingi afsuslanishdan naf yo'qligini ninachi va chumoli haqidagi rivoyat misolida ko'p bor uqtirar ekanlar.

\*\*\*  
Lev Tolstoyning «Iqronoma» asarini takror-takror mutolaa qilaman. Uning har jumlasini o'tkir, ta'sirchan mushohada, fikr-inkor, fikr-tasdiq, fikr-da'vatan iborat. «Taassufi holat, – deb yozadi ulug' adib. Odamlar diniy e'tiqodlarga amal qilgan holda, ularga zid tarzda hayot kechirayotganlaridan bezib ketdim. Diniy e'tiqodga qat'iy

“ Cholg'uchi biror kuyni o'rganmoqchi bo'lsa, uni yuz bor, ming bor ijro qilibgina muddaosiga erishadi. Musavvir bir asar yaratguncha qancha zahmat chekadi. Hech kim notiqlikda birdaniga Suqrot yoki Abdulla Qahhor darajasiga ko'tarilmaydi.

bir guruh olim va yozuvchilar «Fransuz tilini himoya qilish va ulug'lash» deb nomlangan manifestni qabul qiladilar. Unda «Ona tilini himoya qilish Vatanni himoya qilish bilan barobardir», degan fikr oldinga suriladi. Bu himoya eng yaxshi kitoblari va ularning mutolaasi orqali amalga oshiriladi.

\*\*\*  
Ulug' ajdodlarimiz «Fahm-farosatli yoshlar kattalar davrasida ko'proq eshitadilar, birov bir nimani so'ramaguncha odob bilan sukut saqlaydilar», deb ta'lim berishgan. «Sukut kalomdan ulug'» degan hikmat ham bor. Ammo har narsada bo'lganidek, sukutda ham me'yor bo'lishi zarur. Bola noto'g'ri tarbiya ta'sirida og'zini ochmay, faqat boshqalarni



# KUNDALIKLARIDA yozilishicha...



amal qilib yashayotgan odamlarni ko'rganimda, ularning hayoti menga g'oyatda jozibador va oqilona ko'rindi. Shunda men nega bir vaqtlar bu e'tiqodlardan bezganimni, nega ularni ma'nosiz deb hisoblaganimni, endilikda esa nima sababdan ularni qayta qabul qilganimni... tushundim. Men adashganimni va qanday qilib adashganimni anglab yetdim. Noto'g'ri fikr yuritganim uchun emas, balki gunohkorona hayot kechirganim uchun adashgan ekanman. Anglab yetganim shu bo'ldiki, haqiqatni mendan yashirgan narsa – fikrlarimdagi xatolik emas, ishratbozlik, maishatparastlikka berilib, baloi nafsni qondirish yo'lida o'tkazgan hayotim ekan.

«Iqronoma»dan anglashiladigan buyuk xulosa shuki, noto'g'ri fikrlash ayb emas, haqiqat izlayotgan inson adashib, yangilashib, o'zining bu holatlarini idrok etibgina ko'zlagan maqsadiga erishadi. Bungacha u, adib uqtirganiday, «hayotning noma'lum sohillari tomon qayiqda, shiddatli oqim bilan yolg'iz qoldirilgan holda, tajribasiz qo'llari bilan eshkak eshadi, oqim uni manzildan boshqa tomonga ayovsiz ravishda sudraydi, yo'l-yo'lakay o'zi kabi oqim ixtiyoriga tushib qolgan, qo'llaridan eshkaklari tushib ketgan yo'lovchilarni uchratadi, va yana – u o'lislab suzib borar ekan, oqimni mensimaydigan haybatli kemalarga, shovvalarga urilib, dabdabli chiqqan qayiqdarga duch keladi».

Bunday holatga tushgan adib, nihoyat, xulosa qiladi: «Sohil – Xudo, yo'nalish – rivoyat, eshkaklar – menga berilgan erk ekan. Men ularning yordamida sohilga – Xudoning jamoliga erishmoqqa suzmog'im kerak edi».

Ustoz Sharif Yusupovning «Tarix ummoni sirlari» kitobida Toshkentning so'nggi qozikaloni Hakimxo'ja eshon haqida muhim bir ma'lumot keltiriladi. 1865-yilning yozida Chernyayev qo'shini Toshkentni qamal qilgach, bir yarim oy mobaynida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan azoblardan qirilib bitishga mahkum etilgan shahar aholisi Abulqosimxon eshon, Solihbek oxund, Hakimxo'ja qozikalon singari pokdomon zotlarga iltijo qilib, dushman bilan murosa yo'lini topishni so'raydi. Shu tariqa so'nggi chora sifatida taslim bo'lish haqida Chernyayev bilan bitim

tuziladi. Ana shu voqeadan keyin Hakimxo'ja qozikalon Turkiston gubernatori Romanovskiy ishtirok etgan katta yig'ilishda bu hukmdordan aslo tap tortmay, dilidagi gapni uning yuziga qarab, dangal aytadi: «Hamamizni Yaratgan Haq taolo bor. Uning amri har bir inson uchun muqaddasdir, binobarin, sizning amringizdan ham yuqori turadi. Agar Haq taolo meni o'z panohida asrasa, faqat siz emas, balki sizdan yuqorida turganlar ham hech narsa qila olmaydilar. Muhtaram janob, siz meni qo'rqitish yo'li bilan shariat yo'lidan to'ydirishga majbur qilaman deb o'ylay ko'rmang».

Bu jasoratli gap imperator saroyigacha yetib borib, katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Shundan so'ng yirik hukmdorlar orasida «Turkistonda Xudodan boshqa hech kimdan qo'rqmaydigan jasur bir odam bor, u Hakimxo'ja qozikalondir», degan ovoza tarqaladi.

Buyuk Xitoy faylasufi Konfutsiyning hayoti va o'ziga xos ma'naviy-falsafiy ta'limoti ma'rifatli dunyo ahlini hamma zamonlarda ham qiziqtirib kelgan. Uning «O'zingga ravo ko'rmagan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'rma, ezgulikka ezgulik, yovuzlikka adolat bilan javob qaytar, avvalo, o'zingni angla», degan axloqiy hikmati bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Bo'lajak olim bir yarim yoshga to'lganida otasidan yetim qoladi, yoshligidan qorin to'ydirish uchun ishlashga majbur bo'ladi. Shu bilan birga, ilm olishga astoydil qiziqadi, yog'och, shoyi, bambuk parchalariga yozilgan kitoblarni qayta-qayta o'qib chiqadi, ularda bayon etilgan ma'nolarning mag'zini chaqishga harakat qiladi. Yigirma ikki yoshida donishmandlik darajasiga yetib, millatning buyuk muallimi, ulug' ustoz maqomiga erishadi, o'ttiz yoshida mamlakat tarixida birinchi bo'lib xususiy maktab ochadi. «O'n besh yoshimda menda o'qishga ishtiyoq tug'ildi. O'ttiz yoshimda qat'iy bir qarorga keldim. Qirqa kiranimda shubha-gumonlardan holi bo'ldim. Ellik yoshimda Falak irodasini angladim. Oltmishda samimiyat, sidqidillik meni zabt etdi. Yetmishga kirgach, me'yorni buzmay, qalb amriga ko'ra ish tutayapman», deydi u shogirdlariga.

Ulug' ustozning yana bir fikri: «Odamlar uchun suv va olov muhim, ammo insongarchilik ulardan ko'ra ham muhimroq. Men suv va olov tufayli halok bo'lgan odamlarni ko'rdim, ammo insongarchiligi uchun halok bo'lgan birorta odamni ko'rganim yo'q».

Radiy Fishning «Jaloliddin Rumiy» romanidagi alloma vafoti bilan bog'liq lavhada shunday so'zlar bitilgan: «Turklar va xurosoniyalar, yunonlar va armanlar, pravoslavlar va yahudiylar – hamma shoir bilan vidolashishga kelgan, har kim o'z rumusida alvido aytardi». Faqihlardan biri «amir ul-umaro» Muminiddin Parvonaga: «O'z shayxini dafn etayotgan mo'minlar ichra nasroniy va yahudiylar ne qilur?», deb ularni marosimdan haydashni so'raydi. Bunga javoblan: «Quyosh Yer yuzini yoritganidek, Rumiy haqiqat nuri ila butun bashariyatni munavvar etmish. Quyosh – hammaning mulki!»- deydi nasroniy ruhoniysi. «Mavlono non kabi dirlar. Non hammaga zarur. Amirin, ochlarning nandan yuz o'girib ketganini qayda ko'rgansiz?»- deydi yahudiylar ravvini.

Buyuk Britaniyaning qirolik taxtiga o'tirgan Karl uchinchining 1993-yili Oksford universiteti qoshidagi Islom tadqiqotlar markazida so'zlagan «Islom va G'arb» nutqida quyidagilarni o'qiydiz: «Turkiya, Misr, Suriya kabi musulmon davlatlari Ovrupodan ancha oldin ayollarga saylash huquqini bergan, musulmon ayollari Shveysariya ayollaridan ham avval bunday huquqqa erishganlar. Ushbu mamlakatlarda ayollar erkaklar bilan teng miqdorda maosh olishgan... Musulmon ayollarining mulk va merosga doir huquqlari, shuningdek, ishlash huquqlari hamma joyda ham amalga oshmagan bo'lsa-da, Qur'onda bu to'g'rida bir ming to'rt yuz yil avval ochiq-oydin aytilgan. Britaniyada bunday huquqlarning ba'zilarining mening buvim taxtda o'tirgan davrda ham g'alati tasavvur uyg'otgan bo'lsa kerak. Buyuk Britaniya tarixida ayol kishi ilk bor bosh vazir lavozimiga erishganida, qator islom davlatlarida ayollar bu lavozimda allaqachon ishlamoqda edilar...». Kitob mutolasi jamiyatni tafakkur mehrobida ushlab turadi. Yashashda davom etamiz.



CAMBRIDGE  
UNIVERSITY PRESS  
& ASSESSMENT

## PREZIDENT MAKTABLARI QABUL IMTIHONLARIDA XALQARO TASHKILOT XODIMLARI ISHTIROK ETDIMI?

Mamlakatimizdagi qobiliyatli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilgan Prezident maktablarida o'qish istagini bildirgan talabgor o'quvchilar soni yildan yilga oshib bormoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi axborot xizmati rahbari Jo'rabek Jangirov tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, respublika miqyosida Prezident maktablariga qabul qilingan hujjatlar bo'yicha bitta o'ringa o'rtacha 169 ta nomzod to'g'ri kelmoqda.

Ma'lumki, agentlik tizimidagi Prezident maktablariga 2023/2024-o'quv yili uchun hujjatlar qabuli jarayoni joriy yilning 10-iyunidan 30-iyun kuniga qadar davom etdi. Prezident maktablariga jami 56 ming 745 ta hujjat qabul qilindi va 2023/2024-o'quv yili uchun kirish imtihonlarining dastlabki bosqichi bo'lib o'tdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda Prezident maktablariga kirish imtihonlarida joriy yilda Cambridge University Press&Assessment xalqaro tashkiloti mutaxassislari ishtirok etmagani va birinchi bosqich imtihonlarida savollar takroriy qo'llanilgan haqidagi xabarlar tarqaldi va ko'plab muhokamalarga sabab bo'ldi.

Mazkur xabarlar yuzasidan Cambridge University Press&Assessment xalqaro tashkilotining ta'lim yo'nalishi bo'yicha bosh maslahatchisi Steve King quyidagilarni ma'lum qildi:

–Tashkilotimiz 2019-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi bilan hamkorlikda ishlab keladi hamda imtihon savollarini tayyorlash va o'quvchilarni saralashda, natijalarni e'lon qilish jarayonlarida ham ishtirok etadi.

Har yili O'zbekistonda minglab talabgorlar 14 ta hududdagi Prezident maktablariga kirish uchun bellashadi. Bu yilgi imtihonlarning 1-bosqichi uchun ham 8 ta turli xil variantlardagi savollar ishlab chiqildi. Bunda savollarning takrorlanmasligi va har smenada har xil savollardan foydalangan holda shaffoflikni ta'minlashga intiladi.

Shuni alohida ta'kidlashim lozimki, bu yilgi Prezident maktablari qabul imtihonlarida ham Cambridge University Press&Assessment xalqaro tashkiloti xodimlari ishtirok etdi. Yuqorida tarqalgan xabarlar mutlaqo asossiz.

Bizning tashkilotimiz qabul imtihonlari bilan bog'liq hamkorlikdan mamnun va ishonamanki, O'zbekiston bilan hamkorligimiz uzoq yillar davom etadi, – dedi Steve King

Muhayyo TOSHQORAYEVA,  
O'ZA



## «HALOLLIK»

## PIRAMIDAS

yoxud nafsiga qul quruvchilar

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassislari tahlillariga ko'ra, bugunga kelib qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 10,7 baravarga o'sgan. O'tgan 6 yilda milliy iqtisodiyotimizning barqaror o'sishiga qurilish sohasi ham salmoqli hissa qo'shdi. Ammo, infratuzilma obyektlarini hisobga olmay, rejasiz, ertani o'yalmasdan uy-joylar qurish hisobiga poytaxt ob-havosining ifloslanishi darajasi dunyodagi yetakchi shaharlar qatoriga ko'tarildiki, bu aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Bu muammoga shaxsan Davlat rahbari e'tibor qaratib, daraxtlarni kesishga moratoriy e'lon qilganidan keyingina jarayon biroz sekinlashdi.

**AMMO** ko'plab qurilish tashkilotlari amaldagi qonunlar, xususan, Shaharsozlik kodeksi talablarini chetlab o'tib, «o'zim xon, ko'lankam maydon» qabilida faoliyat yuritishga ko'nirik qolgan ekanlar.

Eng yomoni, qurilish tashkilotlari Kodeksning 4-moddasida belgilab qo'yilgan: «...hayotiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitga, tabiiy resurslar va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish...» kabi eng muhim talablarga ko'z yummoqdalar.

Jurnalist Shahnoza Mamaturovovning yozishicha: «...qurilish xizmatlari hajmi 1,7 barobarga oshib, 2017-yildagi 34 trillion so'mdan 2022-yilda 131 trillion so'mga yetgan. Xususan, YAIM tarkibida qurilish xizmatlarining ulushi 5,4 foizdan

6,7 foizga o'sgan. Ayni paytda ushbu sohada 1,3 million kishi ishlayapti. Agar 2017-yilda quruvchilarning o'rtacha ish haqi 1,6 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 4,4 million so'mga yetgan yoki o'tgan 6 yil davomida 2,6 baravarga oshgan...».


Bir yaxshining bir yomoni bor deganlaridek, boshqa bir manbada keltirilishicha, 2022-yili yashillik 2017-yildagiga nisbatan Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida 18 foizga, Yakkasaroyda 23, Shayxontohurda 26, Olmazor tumanida esa 33 foizga kamaygan. Tabiiyki, bunday misollarni respublikaning boshqa hududlaridan ham keltirish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, ekspertlar mamlakatimizda shaharsozlikning rivojlanishini tahlil qilib, qurilish ishlari yashillikni kamayib ketishiga asosiy sabab bo'layotganini ta'kidlashayotir.

Bu ham yetmaganidek, «tuya go'shtini yegan» qurilishlar, yoki o'z faoliyatini g'irromlik bilan olib borayotgan tashkilotlar kasriga halol-pok quruvchilarga bo'lgan ishonch ham so'nyapti. Mana bir misol:

Yakkasaroy tumani Kichik halqa yo'li ko'chasi 22-avtoturargoh o'rnida qurilayotgan ko'p qavatli «novostroyka»dan uy sotib olish uchun shartnoma qilgan bir guruh fuqarolar 3 yildirki, sarson-sargardonlar. Qayd etilishicha, birgina, Toshkent shahrining o'zida mingdan ortiq kishi uy uchun pul to'lab, endi uyini o'lmay yuribdi. Bunday holatlar esa qurilish va ko'chmas mulk bozoridagi firibgarliklarni oldini olish uchun yangi va samarali tizimni joriy etishga ehtiyot borligini ko'rsatadi, albatta.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, bu borada dunyo tajribasi qanday? Ko'plab rivojlangan davlatlar yuqoridagi kabi



firibgarlik bilan bog'liq holatlardan mijozlarni himoya qilish uchun eskrou tizimidan foydalanishadi. Xalqaro ekspertlar ham amaliyotda sinovdan o'tgan bu tajriba samarali ekanini ta'kidlashyapti. Bu moliyaviy bitim bo'lib, unda uchinchi tomon kelishuvda (operatsiyada) qatnashuvchi ikki tomon uchun zarur bo'lgan to'lov mablag'larini, kelishuv to'liq amalga oshguncha qadar, o'zida saqlash va boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Bu o'z navbatida mablag'larni shartli saqlash, ya'ni hisob raqamida ushlab turish orqali, kelishuvni (tranzaksiyalarni) yanada xavfsiz bo'lishiga imkon yaratadi, to'lov ishonchli kompaniyaning nazorati ostida faqat shartnomaning barcha shartlari bajarilganda ochiladigan xavfsiz hisob raqamida saqlanadi.

Eskrouning asosiy maqsadi – tovar oluvchiga tovarning yetib kelishini, tovar sotuvchiga mablag'lar kelib tushishini ta'minlashdan iborat. Eskrouning o'zni bitimni amalga oshirishdagi vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Kelishuv bo'yicha barcha majburiyatlar amalga oshirib bo'lingach, eskrou xizmatini amalga oshiruvchi pul mablag'larini tovar yetkazib beruvchi hisobiga ko'chiradi...

Bir so'z bilan aytganda, ayrim g'irrom quruvchilar faoliyati sabab quruvchi va xaridor o'rtasida uchinchi bir shaxsning paydo bo'lishiga ehtiyot sezilyapti. Darvoqe, ijtimoiy tarmoqdagi yangi uylar to'g'risidagi reklama va e'lonlarni ko'rib, taklif etilayotgan sharoitlar bilan tanishib, ko'zing quv naydi, nahotki orzuimga erishsam, deya yuraging qinidan chiqqudek hayajonga tushasan kishi. Ammo o'sha qad rostlayotgan uyni joyiga borib ko'rsang, na yurishga, na avtoulavlarga, va, na yashil yo'laklarga joy qoldirilganiga ko'zing tushadi. Shunga ham ko'nib, narxlar va imtiyozlar bilan qiziqsang, 90 foiz holatda na subsidiya, na kreditga berilmasligi aytiladi...

Bir dunyo xat-hujjat topshirib subsidiya olgan bir tanishim ajratilgan subsidiya muddati tugaguncha qadar ham uy topa olmas. Subsidiyaga beriladigan uylarning xonalari to'g'ri kelsa narxi qimmat, narxi to'g'ri kelganing xonalari 3 bolali oilaga to'g'ri kelmaydi. Xullas olingan subsidiyasi «kuydi»...


Modomiki, aholiga qulay shartlar yaratilib, to'lov va muddat masalasida imtiyozlar berilmas ekan, unda 44 mingga yaqin qurilish tashkilotlarining bunyodkorlik faoliyatidan faqat o'ziga to'q qatlamgina manfaat ko'radi, xolos.

Shu o'rinda sohada kuzatilayotgan yana bir muammo haqida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ko'plab, yangi qurilayotgan binolarning sifatli darajasiga asosiy e'tibor qaratilib, zilzilaga bardoshlilikini tekshirish chetda qolyapti. Buni Kun.uz saytida e'lon qilingan quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin: «2022-yilda respublika bo'yicha 4744 ta bino va inshoot qurilib, foydalanishga topshirilgan. 497 tasining esa zilzilaga bardoshlilikini tekshirilmagan. Xususan, seysmik faol zonada joylashgan Namangan viloyatida 51 ta, Farg'onada 35 ta, Toshkent viloyatida 123 ta, Sirdaryo viloyatida 40 ta, Samarqand viloyatida 26 ta, Buxoro viloyatida 67 ta, Navoiy viloyatida 49 ta hamda Toshkent shahrida 38 ta III-IV toifadagi bino va inshootlar zilzilaga bardoshlilik bo'yicha instrumental texnik tekshiruvdan o'tkazilmagan».

Ma'lum qilinishicha, 2023-yilda respublika miqyosida yana 8877 ta bino va inshoot quriladi. Bu shubhasiz, aholiga qulayliklar yaratish, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni imtiyozli shartlarda uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati natijasidir. Yangi uy egalaring talab va istaklaridan kelib chiqib, 1706 uyning zilzilaga bardoshlilikini tekshirish belgilab qo'yilibdi. Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, gap yangi o'zbekistonliklarning hayoti haqida ketar ekan, binolarni vibrodinamik uskuna yordamida sinovdan o'tkazishni yuz foizga yetkazish, to'la nazoratga olish shart!

Xulosa o'rinda aytish joizki, zamonaviy, turli qulayliklarga ega binolar qurish orqali aholiga qulay yashash sharoitlari yaratishni yangi davr, yangi realliklar talab qilyapti. Ammo, bu jarayonda eng avvalo qonun talabini, tabiat oldidagi mas'uliyatini, odamlarni rozi qilish Yangi O'zbekistondagi Bosh g'oya ekanini unutmaslik kerak. Pul uchun, foyda uchun bir parcha ochiq joyga ham uy qurish, aholi e'tirozlariga bepisand qarash rozi-rizolikka olib kelmaydi. Ba'zan shunday uylar qurilyaptiki, ularning rejasizligi sabab yo'llarni ko'chirishga to'g'ri kelyapti. Zotan, bugun bir tup daraxtni kesish bilan foyda qildim deysih – ertangi kuni ko'rmaslikdan nishondir. Qurilish sohasi esa yuqorida qayta-qayta takrorlaganimizdek faqat rozi-rizolik bilan rivoj topadigan sohadir.

**Mahbuba KARIMOVA,**  
«Milliy tiklanish»  
muxbiri



Ushbu bino katta yo'l yoqasiga emas, deyarli yo'l ustiga qurilmoqda. Ishonmasangiz mashur «Sofiya» ko'chasiga borib ko'ring. Endi «innovator quruvchilar» o'z xatolarini yashirish uchun katta yo'lni narigi tomondan «qarz» olib kengaytirishyapti...





Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov harbiylar, shifokorlar, o'qituvchilar, davlat xizmatchilari va boshqa bir qator toifadagi fuqarolarni qirg'iz tilida so'zlash majburiyatini yuklovchi «Davlat filli to'g'risida»gi qonunni imzoladi.


Chorshanba  
19-iyul, 2023-yil  
№22 (1210)



## ROSSIYA QUROLI KUCHLARI FAOLLASHDI

Ukraina qurolli kuchlari Sharqiy guruhi vakili Sergey Cherevatiy ma'lumotiga ko'ra, Rossiya qo'mondonligi Liman va Kupyansk yo'nalishlarida 100 mingdan ortiq harbiy xizmatchi va 900 ta tankni jamladi. «Dushman Liman va Kupyansk yo'nalishlarida 100 mingdan ortiq shaxsiy tarkib, 900 dan ortiq tank, 550 dan ortiq artilleriya tizimlari va 370 ta raketa tizimlaridan iborat juda kuchli guruhi to'pladi», – deya ta'kidlagan u. Rossiya armiyasining Kupyansk yo'nalishida faollashgani haqida avvalroq Ukraina mudofaa vaziri o'rinbosari Anna Malyar va Ukraina qurolli kuchlarining quruqlikdagi qo'shinlari qo'mondoni Aleksandr Sirskiy ma'lum qilgan edi.

## YER XAVF OSTIDAMI?



Yevropa kosmik agentligi tez orada Yerga avtomobil kattaligidagi sun'iy yo'ldosh tushishi haqida xabar berdi. Besh yildan beri Yer atrofida uchib kelayotgan Aeolus sun'iy yo'ldoshning yoqilg'isi tobora tugab borayotgani va ayni paytda 1,3 tonnalik sun'iy yo'ldosh kuniga taxminan 1 km tezlikda yerga yaqinlashayotgani aytilmoqda.



## OKEANLARNING RANGI O'ZGARMOQDAMI?

«Nature» jurnali tadqiqotiga ko'ra, dunyo okeanlarining 56 foizida suvning rangi o'zgargan. Massachusetts texnologiya instituti (MIT) va Buyuk Britaniyaning Milliy okeanografiya markazi olimlari bu o'zgarishga iqlim o'zgarishi sabab bo'lganini aniqlashdi. Tadqiqotlarga ko'ra, okeanning rangi suv yuzasida nima borligiga bog'liq. Odatda okeanning rangi ko'k bo'lib ko'rinadi, chunki u quyosh nuri uchun filtr vazifasini bajaradi va suv yorug'lik spektrining qizil qismidagi ranglarni o'zlashtiradi.

## YERDA G'AROYIB HODISA KUZATILMOQDA



Yerda so'nggi 40 yil ichida eng issiq harorat kuzatilgani ma'lum qilindi. Mazkur harorat oxirgi 40 yil ichida Yer sayyorasida olti marta kuzatilgan. Bu «El-Nino» hodisasi ham deyiladi. «El-Nino» har 2-7 yilda bir marta Tinch okeanining sharqiy qismida paydo bo'ladigan tabiiy hodisa. Ushbu hodisa Tinch okeanidagi katta suv massasi haroratining me'yordan ortishiga va global haroratning keskin ko'tarilishiga olib keladi. Bu yil ham sayyorada mazkur hodisa yuz bermoqda. Oxirgi 40 yil ichida «El-Nino» quyidagi yillarda kuzatilgan:

- 1982-yilda;
- 1987-yilda;
- 1991-yilda;
- 1997 – 1998-yillar;
- 2009 – 2010-yillar;
- 2015 – 2016-yillarda.



## G'LLA KELISHUVI KUCHDA QOLADIMI?

Ukraina prezidenti Zelenskyy Turkiya va BMtga Rossiya ishtirokisiz g'alla kelishuvini taklif qildi. U Prezident Erdo'gan va Bosh kotib Guterrishga Qoradengiz don tashabbusi yoki unga tenglashtirilgan uch tomonlama shakldagi ishni davom ettirish taklifi bilan rasmiy maktub yo'ladi.

## RONALDU YEVROPA FUTBOLIGA QAYTMAYDI

«An-Nasr» klubida to'p surayotgan portugaliyalik hujumchi Krishtianu Ronaldu endi Yevropa futboliga qaytmaligini aytdi, deb xabar beradi «Vesti.kz». Eslatib o'tamiz, besh karra «Oltin to'p» sohibi bunga qadar Portugaliyaning «Sporting», Angliyaning «Manchester United», Ispaniyaning «Real» va Italiyaning «Juventus» klublarida to'p surgan. U o'tgan qishda Saudiya Arabistonidagi klubga ko'chib o'tgandi. Mashhur insayder Fabritsio Romano o'z Twitter sahifasida Ronalduning ushbu so'zlaridan iqtibos keltirdi: «Men Yevropa futboliga qaytmayman, eshiklar butunlay yopiq. Hozir 38 yoshdaman va Yevropa futboli men uchun juda ko'p sifatlarni yo'qotdi. Faqat Premer-ligagina boshqa barcha ligalardan ancha oldinda».



## INSULTGA CHALINGANLAR UCHUN MAXSUS LIBOS

Insult va parkinsonga chalingan bemorlar uchun maxsus kiyim yaratildi. Mazkur kiyim bemorlarning harakatchanligini yaxshilashga yordam beradi. Kostyum 58 ta elektrod bilan jihozlangan bo'lib, ular foydalanuvchining shaxsiy ehtiyojlariga qarab sozlanishi mumkin. Past chastotali elektr stimulyatsiyasi qon aylanishini yaxshilaydi va mushak juftlari o'rtasidagi ilgari buzilgan muvozanatni tiklaydi.

## ENG TEZYURAR POYEZD SINOVDAN O'TKAZILDI

Xitoy dunyodagi eng tez klassik yo'lovchi poyezdini sinovdan o'tkazdi. Sinovlar davomida CR450 o'q poyezdi soatiga 453 km gacha tezlashdi. U Pekin va Shanxay shaharlari o'rtasida harakatlana boshlaydi va ushbu masofa bo'ylab sayohat bor-yo'g'i 2,5 soat davom etadi. Bu esa hozirgidan deyarli 2 barobar kamroq deganidir.



Sahifani internet ma'lumotlari asosida Feruza XODJAYEVA tayyorladi.



Adabiyot haqida o'ylaganimda, birinchi adabiyot o'qituvchilarim yodimga tushadi.

Urushdan avvalgi og'ir yillar. Hali Ulug' Vatan urushi boshlanmasa ham, uning sovuq nafasi sezila boshlagan davr. Shaharda yashar edik. Oilamiz boshiga musibat tushib, tug'ilgan qishlog'imizga ko'chib bordik. Qish bo'lmasa ham dalaga qirov tushgan sovuq paytlar edi. Yangi joyga, notanish bolalar davrasiga ko'nikish qiyin bo'lar ekan. Maktabga bo'yniga arqon solingan qo'ydan battar bo'lib kirib bordim. Oltinchi «A» sinfiga olib kirib qo'yishdi.

Birinchi qatorda bittagina joy bor ekan, sinf to'la bolalarning masxaraomuz nigohlari ostida o'sha joyga borib o'tirdim. Bir payt eshikdan novchadan kelgan, ozg'in, xushsurat bir odam ko'rindi-yu, g'ala-g'ovur darhol tinib, sinf suv quyganday jim-jit bo'lib qoldi.



Odil YOQUBOV,  
O'zbekiston Xalq yozuvchisi  
(1926–2009)

## O'QITUVCHINING QADRI

H

anuz esimda: meni hammadan burun o'qituvchining ust-boshi lol qoldirdi. U nihoyatda sipo va ozoda kiyingan edi. Ohori to'kilmagan oppoq ko'yalak, o'sha paytlarda rasm bo'lgan qora charlston kostyum-shim, bo'ynida guldor galstuk, oyog'ida yalt-yalt etib turgan qora tuffi, boshida taxi buzilmagan chust do'ppi... U sinf o'rtasida to'xtadi, birdan sukutga cho'mgan o'quvchilarni allaqanday vazmin nigoh bilan ko'zdan kechirib chiqdi-da:

– Pushkin. «Kavkaz asiri», – dedi tiniq, sokin ovozda, so'ng qo'lidagi kitobga qaramasdan, mashhur dostonni yoddan o'qiy ketdi. Bilmadim, ehtimol, o'sha daqiqalargacha she'rni yaxshi o'qiydigan odamni ko'rmagandirman, ehtimol, o'qituvchining kattagina dostonni deyarli yodgina bilishi qattiq ta'sir etgandir. Lekin, nazarimda, o'sha onlargacha umrimda hech qachon bunday sehrar ovoz, bunday maftunkor ohanglarni eshitmagan edim! Nafaqat men, sinfni to'ldirib o'tirgan qirqdan ortiq bolalar o'zlarini sezmaganda buyuk doston sehriga «ilingan», doston bilan birga nihoyatda chiroyli kiyingan bu xushsurat odamga, adabiyot o'qituvchisiga mahliyo bo'lib qolishgan edi! O'sha darsdan xotiramda muhrlanib qolgan yana bir tafsilot: men qirq besh daqiqa qanday o'tganini bilmayman, faqat qo'ng'iroq chalinib, dars tugab qolganidan qattiq afsus qilganim hanuz esimda. Shu-shu, adabiyot darsi biz uchun eng sevimli darsga, adabiyot o'qituvchimiz Mamatamin aka Mahmudov esa eng aziz inson va eng hurmatli murabbiyimizga aylandi. Mamatamin akaning o'zi ham she'rlar, hikoyalar yozar, deb adabiyot va san'atga

oid hamma yangiliklarni u kishidan eshitir, o'sha mahalda mashhur bo'lgan yangi asarlar «Yosh kuch», «Guliston», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazeta-jurnallarini ham shu odamdan so'rab, olib o'qirdik. Umuman, Mamatamin aka faqat adabiyot emas, boshqa fanlar, xususan, geografiya, tabiat, tarix fanlaridan ham yaxshi xabardor edilar. Shuning uchun ilmga, adabiyot va san'atga ishqiboz yoshlar u kishining atrofida parvona edi. Shu tarzda sakkizinchi sinfga o'tguncha Mamatamin akadan tahsil oldik, sakkizinchi sinfdan boshlab esa taqdir bizga yana bir ajoyib inson va iste'dodli pedagog Sulaymon aka Amirovni in'om etdi. Sulaymon aka yigirmanchi yillarning oxiri va o'ttizinchi yillarning boshida Samarqand pedakademiyasida ta'lim olgan. Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzodalar bilan muloqotda bo'lgan, ilm doirasi nihoyatda keng, mushohadasi o'tkir, inson sifatida ham nihoyatda samimiy, xushchaqchaq, dilkash odam edilar. U kishi klassiklarining o'lmas asarlari haqidagi hikoyalarga mahliyo edik. Sulaymon aka go'zallik va nafosatni his etish va bu hislarini yoshlarga «yuqtirish» san'atini mukammal bilan, shu san'at va mehri bilan bizni tamom rom qilib olgan edi. Uzun qish kechalarida domlamizning tor bo'lsa ham shinam xonasiga yig'ilib, tancha atrofida, Sulaymon

aka bilan tongotar suhbatlar qurardik...

Xo'sh, bu uzundan uzoq muqaddimadan maqsad nima? Hurmatli gazetxon gapning nishabi qayoqqa qarab ketayotganini allaqachon sezayotgan bo'lsa kerak. Darhaqiqat, maqolani o'z yoshligim, o'z domlalarimdan boshlashimdan maqsad – men, avvalambor, bugungi adabiyot o'qituvchisi, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli, qolaversa, umuman, maktablarda adabiyotdan dars berish muammolari to'g'risidagi fikr-mulohazalarim, to'g'rirog'i, tashvishli o'ylarim bilan o'rtoqlashish edi. Yo'q, men bugun maktablarimizda o'z ilmining shaydosi bo'lgan, adabiyot va san'atni chuqur idrok etib, sevib dars beradigan adabiyot o'qituvchilari yo'q demoqchi emasman. Ular bor, hatto bundaylar adabiyot o'qituvchilari orasida ko'pchilikni tashkil qiladi, desam yangilishmasan. Men buni qishloq maktablarida bo'lgan uchrashuvlardan ham, gazetamizga adabiyot o'qituvchilaridan bot-bot kelib turadigan xatlardan ham sezaman. Lekin, ming afsuski, buning aksini ko'rsatuvchi faktlar, ya'ni o'z fanini yaxshi bilmagan, badiiy asardan zavqlanish nimaligini anglab yetmay turib dars beradigan, oqibatda, o'z o'quvchilarida adabiyot va san'atga mehri uyg'otish o'rniga, undan sovitib qo'yayotgan adabiyot va musiqa o'qituvchilari ham oz emaski, bu narsa bizni tashvishlantirmay qolmaydi. Eng yomon, bunday o'qituvchilar adabiyotga o'ta yuzaki, agar ta'bir joiz bo'lsa, nihoyatda rasmiy va quruq bir narsa, deb qaraydilar. Aksar hollarda ularning darslik kitobini ochib, «falonchi yozuvchi falon yili falon shaharda tug'ildi, falon yili

” Anna Karenina yoxud Otabek va Kumushlarning fojiiy sevgisi o'quvchini larzaga solishi uchun o'qituvchi bu asarlarni yonib o'qishi yo ular haqida yonib hikoya qilib berishi zarur.

falon asarni yozdi, bu asarida u pismadon qahramonning obrazini yaratdi» kabi tayyor gaplarni, his-tuyg'usiz o'lik matnini quruq, jonsiz ovozdagi zerikarli o'qib berishdan nari o'tmaydilar. Ular badiiy asarni hayot bilan solishtirib o'qish kerakligini, asar qahramonlarining quvonchi o'quvchining quvonchiga, musibati – sal mubolag'a qilib aytganda – uning shaxsiy musibatiga aylanib ketishi lozimligini yo anglamaydilar, yo bunga iqtidorlari yetmaydi. Chunki Anna Karenina yoxud Otabek va Kumushlarning fojiiy sevgisi o'quvchini larzaga solishi uchun o'qituvchi bu asarlarni yonib o'qishi yo ular haqida yonib hikoya qilib berishi zarur. Busiz tom ma'noda adabiyot o'qituvchisi bo'lish qiyin, lekin, afsuski, biz bu haqiqatni unutilib qo'ymoqdamiz. Albatta, hozirgi davrni biz tahsil ko'rgan urush yillariga taqqoslab bo'lmaydi. Bugungi o'quvchilarning qiziqish doirasi bizning yoshlik chog'larimizdagidek, faqat adabiyot bilangina cheklangan emas. Bugungi yoshlarning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiluvchi omillar ko'p. Ularning e'tiborini yolg'iz adabiyot

emas, san'atning boshqa turlari – kino, televideniye, sport va hokazolar jalb etmoqda. Boz ustiga, fizika, matematika, biologiya kabi aniq fanlar taraqqiyoti ham shunday rivoj topdiki, ular yoshlarning xayolot olamini rom qilib olishi tabiiy bir hol. Lekin bu hayotiy haqiqat adabiyot o'qituvchisining qiyofasi va uning yosh avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fikrlarimizni inkor etmaydi, bil'aks, ularning oldiga yangi, ilgirigidan ham murakkabroq vazifalar qo'yadi. Bu vazifalarning eng muhimi – adabiyot o'qituvchilarning dunyoqarashi, ilmi, didi va madaniy saviyasi bilan bog'liqdir. Albatta, ilm va madaniy saviya hamma o'qituvchilar uchun, bab-barobar muhim. Lekin adabiyot o'qituvchisi uchun, ayniqsa, zarur. Chunki matematika o'qituvchisi o'z fanini yaxshi bilsa, ehtimol, shuning o'zi kifoyadir, biroq adabiyot o'qituvchisi uchun bu yetarli emas. U nafaqat dasturdagi yozuvchilar ijodi, balki bugungi adabiy jarayonni faol kuzatib borishi shart. Bugun adabiyot va san'at sohasida nima gaplar bo'lyapti, qaysi kitob, qaysi kino, qaysi san'at asari xalqning e'tiborini tortyapti, qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti, nima uchun sevib o'qilyapti yoki qaysi asarlar nima sababdan tanqidga uchrayapti – buni bilish deyarli farz. Nega? Chunki o'quvchi yoshlar bugungi adabiyot va san'at asarlarini ko'p o'qishadi, tomosha qilishadi, bu asarlar haqida o'zaro ko'p bahslashishadi. Endi tasavvur qiling: o'quvchi bu yangiliklarni bilsa-yu, unga go'zallik va nafosatdan dars beradigan o'qituvchi bilmasa, yoshlarning savollariga «o'qimadim, bilmayman», deb tursa! Afsus-nadomatlar bo'lsinki,



maorif sohamizda ilmi-bilimli, yuksak madaniyatli o'qituvchilar bilan birga, biz aytganday, o'z saviyasi, didi, madaniyatini o'stirish haqida o'ylamaydigan, adabiyot muallimi bo'la turib dasturdan «bir qadam chiqolmaydigan», bugungi adabiyot va san'at bilan qiziqmay qo'yg'an, saviyasi past o'qituvchilar ham bor, hatto dadil aytish mumkin, oz emas! Bundan uch-to'rt yil muqaddam el og'ziga tushib, yoshlarning mehrini qozongan bir shoir menga: «Falon institutning sirtqi bo'limida o'qiydigan adabiyot o'qituvchilari bilan uchrashuv bo'lar ekan, birga borib kelaylik», deb qoldi.

Uch-to'rt kishi bo'lib bordik. Institut domlari bizni yaxshi qarshi olishib, izzat-hurmat bilan katta auditoriyaga boshlab kirishdi. Uchrashuv shu yerda bo'lishi kerak ekan. Lekin negadir hech kim yo'q edi. Biror soat o'tganidan keyin domlalar orasida shivir-shivir boshlandi, keyin ulardan biri xijolatdan duduqlana-duduqlana uzr so'radi. Ma'lum bo'lishicha, uchrashuvga keladigan o'qituvchilar qayoqqa ketib qolishibdi. Bu gapni eshitgan adiblar, ayniqsa, yosh shoirlar, qattiq ranjishdi. To'g'risini aytam, avvaiboshda men ham xafa bo'ldim, biroq do'stlarning kayfiyatini ko'rib gapni hazilga burdim:

– Qo'yinglar, og'aynilar, uchrashuvga kelishmagan bo'lsa... buning biror-bir sababi bordir. Siz bilan biz hali klassik bo'lganimiz yo'q. O'qituvchilar uzoq joylardan kelishgan. Poytaxtda nima ko'p – teatr ko'p, muzey, san'at saroylari ko'p. Yangi kinolar qo'yilaypti. O'shalarni ko'rishga ketishgandir! Ertalab uyda telefon jiringladi. Go'shakni olsam – o'sha taniqli shoir. Asabiy kulyapti.

– Kecha uchrashuvga kelmagan adabiyot o'qituvchilari qayerda bo'lishgan ekan, bilasizmi? Chaqardagi choyxonaga borib osh yeyishipti! Bir kuni urushdan yarador bo'lib qaytgan o'sha o'qituvchimiz – Sulaymon aka sinfga kulib kirdilar-da, bir-ikkisi bolani chetga tortib:

– Tirik shoirmi ko'rishni xohlaysanlarmi? – deb so'radilar.  
– Xohlaymiz, – dedik biz...  
– Xohlasalaring... Iqonga Toshkentdan Mirmemir kelibdi, yuringlar, borib ko'rib kelaylik. Shoir odam, ko'p narsalarni biladi, bir miriqib suhbatlashib kelamiz, – dedilar Sulaymon aka.

Bizning qishloq bilan Iqon orasi ellik chaqirim keladi. Kech kuz edi. Biz eshaklarga minib qirlar, adirlar osha, soylar kechib Iqon tomon yo'l oldik. Qishloqdan ertalab chiqqan bo'lsak, kunbotishda liqonga kirib bordik. Omadishda yurishmagan ekan: biz boruncha Mirmemir aka Toshkentga qaytib ketiptilar. Afsus bilan orqaga qaytdik. Lekin tirik shoirmi ko'rish umidida bosib o'tilgan ikki kunlik yo'l va bu yo'lda bo'lgan kuz oftobiday

tiniiq suhbatlar, sevikli o'qituvchimizning urushda ko'rgan-kechirganlari, o'qigan she'rlari, o'zbek va jahon klassiklari asarlari to'g'risidagi qiziq-qiziq hangomalari hanuz dilimda, hanuz xotiramda. Bu safar esa... Toshkentga o'qishga kelgan adabiyot muallimlari adiblarni emas, adiblar ularni istab boriptilar ular... yo'q, kinoga emas, teatrga, muzeyga emas, eski choyxonaga maishat qilgani jo'nab qolishipti! Ajabo, bu o'qituvchilar (keyin bilsak, ularning aksariyati bitta imtihon topshirish uchun uch-to'rt marta «yumalab», «bir amallab» «3» olib ketishar

“ O'qituvchi faqat o'qitishgina emas, hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda ham faol bo'lish o'rniga bir chekkada tomoshabin bo'lib turishi to'g'ri emas.

ekan!) o'z qishloqlariga qaytib borishganda poytaxt yangiliklarini eshitishtir umidida ko'zlari jovdirab o'tirgan bolakaylarga nimani aytib berishar ekan?... Yo'q, men ularga emas, balki Toshkentdan qaytgan muallimlarining og'izlariga tikilib o'tirgan o'sha bolakaylarga achinaman! Axir, nahot bu muallimlar go'zallikka, nafosatga tashna bo'lgan yangi film, yangi spektakl yoxud adabiyot va san'at olamidagi yangiliklar o'rniga Chaqar yoki Eski Jo'va choyxonasida yegan oshlari to'g'risida gapirib berishsa? Mana, barcha o'qituvchilar, xususan, adabiyot o'qituvchilarining ma'naviyatiga oid yana bir muammo. Biz bu muammoga 1983-yil obuna paytida duch keldik. Men «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining bosh muharriri bo'lganim vajidan mazkur masalaga o'xtab o'tishni lozim deb topaman. Avvalo, shuni aytish lozimki, obunachilarimizning uchdan bir qismini o'qituvchilar tashkil etadi. Buning uchun biz maorif xodimlaridan, jumladan, Maorif vazirligi va uning quyi tashkilotlaridan juda minnatdormiz. Lekin obuna paytida shunday maktablarni (ayniqsa, shahar joylarda) ham ko'rdikki, ularda o'nga yaqin adabiyot muallimi bo'la turib, bittasi ham adabiyot va san'at gazetasiga obuna bo'lmagan! Albatta, men o'zim muharrirlik qilayotgan gazetaga obuna bo'lmadingiz, deb birovga ta'na qilishga haqqim yo'q. Bu satrlarga ko'zi tushgan odam, ehtimol: «Gazetangiz qiziq emasdirki, ular yozilishmagandir!» deyishga ham haqlidir. Lekin, birinchidan, bizning qoralmidagi faktlarga qaraganda, bu maktablardagi adabiyot o'qituvchilari faqat bizning gazetasigagina emas, umuman, boshqa adabiy jurnal va gazetalarga ham obuna bo'lmaganlar!

Ikkinchidan, o'sha maktablarning o'zida adabiyotdan yiroq ko'plab o'qituvchilar borki, ular adabiy jurnal va gazetalarga obuna bo'lishganu adabiyot o'qituvchilari yozilishmagan! Demak, bu yerda gap adabiy gazeta va jurnallarning saviyasidagina emas, o'sha bir toifa adabiyot muallimlarining bugungi adabiyot va san'atdan uzilib qolganlarida, adabiy jarayonni faol kuzatib bormayotganlarida, boshqacha qilib aytganda, o'z ustlarida ishlamay qo'yg'anlarida! Uchinchidan, bizning fikrimizcha, har qanday holda ham, adabiyot o'qituvchisi, agar u o'zi tarbiya qilayotgan yoshlardan orqada qolishni istamasa, adabiy jurnal

va gazetalarga obuna bo'lib, ularni muttasil kuzatib borishi shart. Aks holda, o'qituvchi o'z talabalaridan orqada qolib, ularga kulgi bo'lib yurishi hech gap emas! Albatta, yana qaytaraman, mening bu gaplarimdan biz o'qigan paytlarda hamma o'qituvchilar zo'r edi-yu, hozir yaxshi muallimlar kam, degan xulosa chiqmasligi lozim. Baxtimizga, hozir ham o'z kasbi, o'z fanining shaydosi bo'lgan fidoyi o'qituvchilar ko'p. Zotan, har bir davrning o'z fazilati bo'lganidek, o'ziga xos qiyinchiliklari, yechilishi lozim bo'lgan, ammo yechilmay qolayotgan murakkab muammolari bo'ladiki, ularni hisobga olmay fikr yuritish adolatdan emas. Bugun ana shunday dolzarb masalalardan biri – o'qituvchining obro'sini ko'tarishdir. Sir emas, so'nggi yillarda xo'jalik, savdo va maishiy xizmat sohalari ishlab, bol ushlagan barmoqlarini yalayverib jir bitib ketgan kalondimog' shaxslar ham ko'payib keldiki, ularning tasavvurida o'qituvchilik ikkinchi darajali kasbga aylanib qolgan! Shu sabab bu olijanob kasbga mensimay qarash hollari bor. O'qituvchi faqat o'qitishgina emas, hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda ham faol bo'lish o'rniga bir chekkada tomoshabin bo'lib turishi to'g'ri emas. Adabiyot va adabiy qahramonlar hayotiy qiyinchiliklar bilan kurashda toblanganidek, o'qituvchilar ham turmush qiyinchiliklarini yengib o'tishda namuna bo'lishlari kerak. Har kun, har soat farzandlarimizni yuksak orzular bilan yashashga, ulug' ideallarimiz uchun kurashga tinmay o'rgatib borishlari dardkor. Yaxshi o'qituvchilar hamisha shunday bo'lgan va shunday bo'lib qoladilar. To'g'risini aytam, men har safar o'z farzandlarim haqida o'ylab, ulardan quvongan onlarimda o'zimdan emas, balki ularga odob o'rgatib, ilm bergan o'qituvchilaridan minnatdor bo'laman. Shuning uchun ham bu olijanob kasb egalari oldida hamisha bosh egaman.



## «MARKAZIY FARG'ONA» GAZETASI 70 YOSHDA

**Asosiy hududi Markaziy Farg'ona cho'llaridan iborat Yozyovon mashhur tumanlardan biri hisoblanadi. Bepoyon kengliklarga monand bu hudud odamlarining bag'ri keng, ko'ngli ochiq.**

Farovon turmush, baxtli hayot zavqini fidokorona mehnatda deb bilgan yozyovonliklarning erishgan yutuqlari, ayni zamonda yil sayin chiroy oshib, bunyodkorlik, yuksalishga yuz tutayotgan tumanidagi katta ko'p gazirishlar, odamlar qalbi va amalida nish urayotgan islohotlar haqida ko'p gapirish mumkin. Quvonarli jihati, ana shu jarayonlarni xolisona yoritib kelayotgan, har bir yangilikni o'quvchisi bilan baham ko'rayotgan nashr – tuman hokimligining «Markaziy Farg'ona» gazetasi 70 yoshga to'ldi. Mazkur gazetasining dastlabki soni 1953-yilning 9-iyulida chop etilgan. Yillar davomida gazeta o'z uslubi va ovozig ega bo'ldi, har bir xonadonda uning yangi sonini intiqib kutuvchilar soni ko'paydi. Odamlar u orqali yangiliklardan boxabar bo'libgina qolmay, mavjud muammolarni bartaraf etishda, haq so'z ijobati, odilona qaror, yaxshilik e'tirofida aynan shu gazetaga suyuana boshladi. Tahririyat esa ko'plab yosh ijodkorlar, jurnalistlar, umuman, qalam ahli uchun tajriba va mahorat maktabi vazifasini o'tadi. Ularning qalamini charxlab, elga tanitdi. «Markaziy Farg'ona» gazetasining 70 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirida viloyat hokimining o'rinbosari Xurshidjon Ahmedov so'z olib, tahririyat jurnalistlarining zahmatli mehnatlarini alohida e'tirof etdi. Shu bilan birga, uzoq yillardan buyon gazetaga rahbarlik qilib kelayotgan, qutlug' 60 yoshni qarshi olgan bosh muharrir Azimjon Xudoyqulovga minnatdorchilik bildirdi hamda viloyat hokimining faxriy

yorlig'i, esdalik sovg'alarini topshirdi. Tadbirida O'zbekiston Milliy Axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov va Jurnalistlar ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi raisi Muhammadjon Obidov so'zga chiqib, yetmish yillik tarixni o'z ichiga olgan gazetasining jamiyat hayotidagi o'rni, salohiyati xususida, dastlabki mehnat faoliyatini «Tong yulduzi» gazetasida boshlab, bugun ko'plab yoshlarga ustozlik qilayotgan iste'dodli jurnalist Azimjon Xudoyqulov haqida iliq fikrlar bildirishdi. Tadbirida qatnashgan faxriy jurnalistlar ham gazetasining faoliyatini haqida so'z yuritib, u tumanning o'ziga xos ko'zgusi ekanligini ta'kidladi. Gazetaga bosh muharrirlik qilgan Ibrohimjon Xalilov, Isroiljon Ibrohimov, Umarjon Ismoilov, Tolibjon Tursunov, Abdulmalik Fozilov, Azimjon Xudoyqulovlar amalga oshirgan xayrli ishlar e'tirof etildi. Shu kuni jurnalistika sohasi fidoyilari bir piyola choy ustida didan suhbatlashdi. Kuy-qo'shiqlar, raqslar davraga fayz kiritdi. Ta'kidlash kerak, bugun gazeta tahririyati zamonga moslashib, ijtimoiy tarmoqlarda o'z veb-sayti, telegram kanali, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini tashkil etgan. Tuman hokimligi e'tibori bilan 2021-yilda tahririyat o'zining yangi binosiga ega bo'ldi. Zamonaviy moddiy-texnik jihozlar, apparaturalar olib berildi. Yosh va iqtidorli jurnalistlar safi kengaytirildi. Bir so'z bilan aytganda, axborot-media olamida murakkab raqobat kuchaygan hozirgi paytda ham o'z o'rni va ovozi saqlab qolishda, turli tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritishda, yosh iste'dodlarni tarbiyalashda, o'ziga xos ijodiy muhit yaratishda tahririyat boshqa bosma nashrlar uchun o'rnak bo'la oladi.

M.SULAYMONOV,



## ABDULLA QODIRIYNI

## OTGAN

Qodiriyning o'g'li  
undan otasining  
so'nggi so'zi haqida  
so'radi.

ODAM...



**B**u voqeaga 30 yilcha bo'ldi. Yurtimiz hali mustaqillikka erishmagan, ammo sobiq Ittifoqning kursisiga zil ketib, «qayta qurish, qayta buzish», degan davr kechayotgan pallalar edi... O'shanda poytaxtdagi eng muhtasham tomoshagohlarning birida Abdulla Qodiriy tavalludiga to'qson besh yil to'lishi tantanali nishonlanayotgan edi. Tomoshaxona odamlar bilan liq to'la, «dangira-dungur»u, «gumbura-gumbur» avjida.

Ular orasida atoqli adibimizning haqiqiy muxlislari qancha-yu, shunchaki tomosha uchun kelganlari qancha – bilish qiyin.

Ammo marhum adib azato'yining to'rida – sahnani to'ldirib qo'r to'kib o'tirganlardan ikki-uch chin qalam ahli-yu, uch-to'rt mehmonni istisno qilganda, qolganlari shunchaki – xizmat yuzasidan kelganlar.

Yana ro'yxat bo'yicha taklif etilgan kazo-kazolar. Yana adibni tirikligida turtganlar qolmagan bo'lsa-da, uning go'riga rosa g'isht qalaganlar ham bor edi. Taassufki, ular orasida qo'yib bersa, hozir ham adib qabrini bir tepib kelishga tappa-tayyorlar ham topilishi mumkin.

Ko'ra-bila turib oqni qora, haqiqatni yolg'on qilib ko'rsatuvchilar, ezgulikni yerga urib, nohaqlikka qulluq qiluvchilar, ichi qora hasadgo'ylar va hokazo...

Ular «zamona haliyam bizniki, xo'sh, senlarning qo'lingdan nima kelardi?» deganday pastdagilarga, oddiy odamlarga yuqoridan gerdayib, ko'zoynaklarini yaltiratib qarashadi, o'z suyanchilari – o'rtani egallab olgan mustabid mafkura amaldorlariga yaltoqlanishadi.

Shu tobda xayolimdan kechgan o'nga qarang, mabodo mo'jiza yuz bersa-yu, maslag-u imonda sobit Abdulla Qodiriy tirilib bu yerga kelib qolsa va o'z to'yida o'tirgan bu iymoni sust «zotlarni ko'rsa bormi, izlariga shartta qaytvorgan bo'ldilar.

Lekin har qalay, tavallud

to'yi, kelgan mehmonni «ket», deb bo'lmaydi, buning ustiga, adibning bu safargi tavallud kuni yaxshilab «uyushtirilgan».

(Adibni otgan mustabid tuzum bu bilan go'yo o'z aybini «yuvib» yubormoqchiday...) Adibning minbarga chiqib bo'zlagan bir-ikki muxlislaridan keyin boshlanib ketgan turli «tabrik»lar, «gulduros qarsaklar» tugagach, uning hayot qolgan yakka-yu yagona o'g'li Ma'sud aka so'z oldi.

Uning gaplari oldindan tegishli shaxslar tomonidan ko'rib chiqilmaganmikin – sal boshqacharoq chiqdi. «Men otam otib o'ldirilgan joyni uzoq izlab, oxiri topdim, – dedi Ma'sud aka. – U Bo'rijar arig'ining narigi tomonidagi bir tepalik ekan. O'ttizinchi yillarda bu yerga kechalari kimlaridir olib kelib otishlarini keksalar bilishar ekan, hattoki, uyi shu tepalikka yaqinroq bo'lganlar «oh-voh» ovozlari ham eshitiisharkan. Ertalabga borib qarasha, naridan-beri ko'mib ketilgan do'ngliklardan otigan odamning qo'li yo oyog'i chiqib qolgan bo'larkan, uning ustiga, tuproq tortib, marhumning ruhiga bir pora qur'on o'qib, duoyi-fotiha ham qilib qo'yisharkan... Men otamni otgan odamni ham izlab-izlab topdim, hozir nafaqada ekan. Undan: «Mening otam o'limi oldindan nima dedi, shuni aytib bering», desam, u odam: «Aytolmayman, bu – sekrete», deydi. Axir, mening otam begunohdan begunoh otilgan bo'lsa, oradan shuncha yil o'tgan

bo'lsa, buning yana nimasi «sir» bo'lishi kerak?»

Ma'sud akaning gaplarini eshitib, «E, Xudo, bunday gaplarni shu qadar bosqlik, dardini ichiga yutib, ko'zlari yoshlanmasdan ayta olgan odamga o'zing to'zim ber!», deysan kishi beixtiyor.

Ma'sud aka hay'atda o'tirgan amaldorlarga murojaat qilib: «Iltimos, otamning oxirgi so'zlarini bilib beringlar», dedi. Hay'atdagilar esa inson bolasi toqat qilolmaydigan bunday dil nolasiga o'zlaricha «chuqur ma'noli» bosh qimirlatish bilan javob qildilar.

Keyin sahnada childirma «gijbang»lab, raqqosalar xitrom qila boshlashdi. Endi tavallud to'yining «badiiy qismi» boshlangan edi. Allaqaysi san'atkor Abdulla Qodiriyi yo Otabekmi bo'lib chiqdi, kimdir uning «yor»i bo'ldi; xullas, bo'yama-bejama, chuchmal ashula-yu raqslar avjiga chiqdi, tomosha ishqiobozlariga Xudo berdi.

Sahnadagi o'yin-kulgi endi boshlangan edi hamki, men Ma'sud akaning tashqariga chiqib ketayotganini ko'rib qoldim. Adibning katta o'g'li – Habibullo aka bilan yaqin edim, Ma'sud akani garchi bilsam ham, shaxsan tanishligim yo'q edi.

Shunday bo'lsa ham, unga shu tobda nimadir degim keldi-yu, orqalaridan chiqdim. Qarasam, u kishi kiyimlar yechib qoldiriladigan joyga qarab yurdilar. Ha, turgan gapki, otib o'ldirilgan otaga bag'ishlangan bunaqa «gij-

badang» tomosha uning ko'ngliga sig'masdi.

Men qadamimni tezlatib, u kishiga yetdim-u, Ma'sud akani to'xtatdim, keyin, aniq esimda yo'q, tovushim og'zimga tiqilib: «Ma'sud aka, shunday og'ir gaplarni ayta olganingiz uchun sizga ming rahmat, otangizning ruhi-poklari qo'llasin», deganday gap qildim.

«Rahmat», dedilar Ma'sud aka xuddi otasinikiga o'xshagan timqora, tiyrak ko'zlarini menga tikib.

Bu yog'i kasbim matbuotchilik emasni – men u kishidan o'sha mash'um tepalik qayerda ekanini so'radim. U kishi o'sha tepalik Yunusobod tomonida, Bo'rijar arig'ining narigi qirg'og'ida ekanini, nomini esa «B...tepa» deyilishini aytdi.

(Hayhot, qarangki, bu tepalikda begunohlarni otib tashlab, yana ustiga shahar axlatlarini ham tashlashar ekan. Shuning uchun bu yer shunday deb atalar ekan).

Men u tepalikning hozir bor-yo'qligini surishtirdim. Ma'sud akaga mening ketmak ket shitob bilan savol berishim uncha «o'tirishmadi», shekilli, qoshlarini bir chimirib oldilar, keyin tepalikning tuprog'ini olib, undan shu yo'lning bu yonidagi xumdonda g'isht yasalganini aytib berdilar.

«Ammo o'sha tepalikning tuprog'i g'isht yasash uchun yaramabdi, suyilib ketaveribdi, shunda bir mashina tuproqni o'sha tepalikdan, bir mashinani esa boshqa tepalikdan olib, aralastirib, keyin g'isht qilishgan ekan...»

Suhbatimiz nima bilan tugagani aniq esimda yo'q, men Ma'sud akaning qo'llarini siqdim, yaxshi tilaklar tiladim.

Ertasiga esa ataylab o'sha, Ma'sud aka aytgan tepalikni ko'rgani bordim. Ammo u tepalikdan nom-nishon qolmagan, yo'lning chap tomonidagi g'isht xumdoni ham yo'q edi. Abdulla Qodiriy xoki aralashib ketgan tuproqdan yasalgan g'ishtlar...

Bu voqeadan keyin men «Shahidtepa qayerda?» degan maqola yozdim va unda Ma'sud akadan olgan ma'lumotlarim, o'zim borib surishtirganlarim asosida Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va o'ttiz yettinchi yilning boshqa siyosiy qatag'onlari qatl etilgan joy Bo'rijar arig'iyonidagi tepalikda ekanligini ma'lum qildim.

«Turkiston» gazetasining 1992-yil 1-aprel sonida bosilib chiqqan bu maqola mazkur masala haqidagi birinchi ma'lumot edi. Keyinchalik bu yerda hozirgi «Shahidlar xotirasi» majmuyi qurildi.

Ha, aytganday, Eski shaharning Jangob mavzeyidagi (keyinroq Abdulla Qodiriy nomi berilgan) bog'da yozuvchining haykali o'rnatilgan. Haykaltarosh o'z asarini bu zotning fojiali qismati qanday yakun topganini yaxshi bilib, anglab yaratibdi.

Adib g'ishtlar ichidan yig'lamsirab chiqib turganday, ya'ni haqqoniy tasvirlanibdi...

Muxtor XUDOYQULOV,  
yozuvchi.  
2019-yil



UMR O'TAR

Umr o'tar, vaqt o'tar,  
Xonlar o'tar, taxt o'tar,  
Omad o'tar, baxt o'tar,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
Sening yurishlaring, sening  
kulishlaring.

Bahorda bog' na go'zal,  
Qor tushsa tog' na go'zal,  
Bu yoshlik chog' na go'zal,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
So'zsiz qarashlaring, holim  
so'rashlaring.

Oy chiqar goh zaholi,  
Do'stlar ko'pdir vafoli,  
Hayot shundan safoli,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
Sokin so'zlashlaring, pinhon izlashlaring.

Umr — yo'l, qayrilish ko'p,  
Uchrashish, ayirilib ko'p,  
Unutish, aytilish ko'p,  
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan  
O'sha kulishlaring, o'sha kelishlaring...

FERUZA

Kelmading.  
Qushlar ko'chib ketdi qoshimdan,  
Tushlar cho'chib ketdi yoshimdan,  
Hushlar uchib ketdi boshimdan,  
Kelmading.  
Xazonlar to'p bo'ldi yillab men uchun,  
Osonlar yo'q bo'ldi yillab men uchun,  
Armonlar ko'p bo'ldi yillab men uchun,  
Kelmading.  
G'amlarning bariga to'zdim —  
chidadim,  
Namlarning bahrida suzdim —  
chidadim,  
Damlarning shahdidan o'zdim —  
chidadim,  
Kelmading.  
Kunlarim hijronga o'qdek yoqqanda,  
Ruhim oti qonga cho'gdek botganda,  
So'nggi o'qni jonga o'zim otganda,  
Sen kelding uzr so'rab...  
Sen kelding nechun?!

\*\*\*  
Ko'zlarini yashirgin mendan,  
O'tib ketay yoningdan befarq,  
O'tib ketay yoningdan bedard,  
Ko'zlarini yashirgin mendan.

Borligimni payqama, mayli,  
Burchaklarda, mayli, qayrilma,  
Meni deb tinchingdan ayirilma,  
Borligimni payqama, mayli.

Nomim bo'lsa qalbingda agar,  
O'tib tashla, mayli, tuproqqa.  
...Har kuni o't shu yo'lni toptab,  
Nomim bo'lsa qalbingda agar.

ESHINGINDAN O'TAMAN...

Kuz yoysa ham yo'llarga xazon,  
Qor ko'msa ham borliqni butun,  
Ko'klam kelib, ursa ham xandon,  
Eshingindan o'taman bir kun.

Sochlaringga tushsa hamki oq,  
Peshanangni bossa ham ajin,  
Kirganda ham gavdangga titiroq,  
Eshingindan o'taman bir kun.

Mayli, shunda tanimasang ham,  
Yoki desang ko'r mayin turqin,  
Yoshim yutib, boshim qilib xam,  
Eshingindan o'taman bir kun.

Meni demay yumsang ham ko'zing  
Xonang qolsa zulmatga tutqun,  
Xotirangga sham bo'lib o'zim,  
Eshingindan o'taman bir kun.

Vaqtin yetib chiqsa bu jonim,  
Dardlarimga yasalsa yakun,



Bu dunyoni tark etar onim  
Eshingindan o'taman bir kun.

\*\*\*  
O'rtamizda birgana olma —  
Olam ichra yumaloq ilinj.  
O'rtamizda birgina olma —  
Balki g'am u yo balki sevinch.

O'rtamizda birgana olma,  
Yarmi qizil, yarmi och-yashil.  
Hayo tug'yonidan qizil u,  
U sog'inchning ramzidir asil.

O'rtamizda birgina olma,  
Barmoq uchi tegsa tovlanar.  
Alvon iffat, yashil tashnalik  
Bir senga, bir menga dovlanar.

O'rtamizda birgina olma,  
Gard tegmagan, biram pokiza.  
Hozircha u rangin bir havas,  
Lab tegsa boshlanar mo'jiza...

\*\*\*  
Yaratganga shukur, sen yana kelding,  
Hamma qonunlarning o'zgardi kuchi.  
Men senga uzundan uzun ot qo'ydim:  
«Ey, eski dardlarni yangilatuvchi!»

Barmoqlar barmoqlar uchini sezdi,  
Ko'ngil bir ilohning kuchini sezdi,  
Yurak allanening o'chini sezdi,  
«Ey, uzoq yo'llarni yaqinlatuvchi!»

Yana ikki ko'zdan sirqildi namlar,  
Billurni yuvdilar pokiza g'amlar.  
Qani ul Sir, Amu mavj urgan damlar,  
Ey, sen dengiz tubin dolg'alatuvchi?!

Asli, qayda bo'lsang, men ko'ngli to'qman,  
Kunchiqarim ishqtsir, nur o'chsa — yo'qman,  
Bilaman, kimgadir juda suyuqman,  
Ey sen, xotirani poklantiruvchi!

Kim aytdi, yo'l ancha o'tildi deya,  
Kelgan ketdi, kutgan kutildi deya,  
Shodman — yana menga duch bo'ldi deya,  
Ishqi omonlarni yashartiruvchi!

Yaratganga shukur, sen yana kelding,  
Hamma qonunlarning o'zgardi kuchi.  
Senga men uzundan uzun ot qo'ydim:  
«Ey, ko'hna dardlarni yangilatuvchi!»

\*\*\*  
Dilimning rangini gul bilsa bo'ldi,  
Mening kimligimni el bilsa bo'ldi.

Olis yulduzlarga sirrim aytmiram,  
Nolishimni tonggi yel bilsa bo'ldi.

Ucharga har qushdan par topinmadim,  
Parvozlar hadisini dil bilsa bo'ldi.

Jaholat mehrobi toshin o'pmadim,  
O'shal bafi toshim til bilsa bo'ldi.

Damlar shikvasiga uchma, omon bo'l,  
Fazlu kamolingni el bilsa bo'ldi.

\*\*\*  
Charx avzoyi bu dam avvalgilarg'a o'xshamas,  
Kotibu davru raqam avvalgilarg'a o'xshamas,  
Endi inson qadri ham avvalgilarg'a o'xshamas,  
Ko'nglum ichra dardu g'am avvalgilarg'a o'xshamas,  
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg'a o'xshamas.

Ne uchar yulduzlar o'tdi chalg'itib elni juda,  
Necha avlod yo'li-yu umidin aylab behuda,  
Davri mezon bilan tortay bu kun o'zimni-da,  
Ne sitamkim qilsa rahm maxfiy erdi zimmida,  
Emdi qilsa ne sitam avvalgilarg'a o'xshamas.

Bul Jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,  
Voh, quyosh savdosig'a shamlar nechuk bo'ldi hakim,  
Ishq, bu — o'z umrim, anga nechuk qasamlar ichmakim,  
Demangiz Shirinu Layli oncha bor ishq ichrakim,  
Xo'blikda ul sanam avvalgilarg'a o'xshamas.

Qay kishikim bir ulug' ishga etibdi jon nisor,  
Shiddati pastu baland kelganda ham bo'lmaydi or,  
Ey falak, hech kimni etma besamar yo'llarda xor,  
Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o'zga yor,  
O'lmishamkim, bu alam avvalgilarg'a o'xshamas.

Ona Sharq tojin kiyur! Zulmatda ushlatmang meni,  
Bodayi haq mastiman, yolg'onga uyg'atmang meni,  
O'z xayolimg'a qo'yning, o'zgaga ishlatmang meni,  
Ishq aro Farhod ila Majnunig'a o'xshatmang meni,  
Kim bu rasvoviy dajam avvalgilarg'a o'xshamas.

Har kima har xil yozur Arsh Mirzosi sana,  
Aylamur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,  
Nafs ipiga bog'lidur ruh iplarini uzgan tana,  
Ko'yining ehromidan ko'nglimni man etmang yana,  
Kim anga azmi haram avvalgilarg'a o'xshamas.

So'kmak o'tganlar ishin notavonlar rasmikim,  
O'z zamonin rost etar qavmi marddir asli kim,  
Shu hayot tilsimlarin ochmoq omonlar kasbikim,  
Ey Navoiy qilma Jamshidu Faridun vasfikim,  
Shoh G'oziyga karam avvalgilarg'a o'xshamas.

TO'RTLIKLAR

Tong otdi, olamda ming rasm ko'rdim,  
Mehrlil ko'zlarini pok, ma'sum ko'rdim.  
Hech kim zahar sepib, bol yiqqan emas,  
Gul kirgan uylarda tabassum ko'rdim.

\*\*\*  
Ey zot, xanjar bilan sen dam talashma,  
Olam uyindasan, olam talashma.  
Mening o'z dardimdir elimning dardi,  
O'z darding bo'lmasa, qalam talashma.

\*\*\*  
Birluk — ko'ngil bilan gulning birligi,  
Birluk — vijdon bilan tilning birligi.  
Birluk — to'qson ikki bovli o'zbekning —  
Ertadan umidvor elning birligi.

\*\*\*  
Olam ko'zgusida ming sinar ko'zgu,  
O'zimmiki emas, hatto tush, uyqu...  
Bu nurlarga tartib kim berar ekan,  
Qachon bir idishga tushar bor og'u?!

\*\*\*  
Yo'q derlar, ishi bor bor bilan yo'qning,  
Bo'shliqdan o'tar-ku yo'li har o'qning,  
Kuchlilar kuchsizga qo'l uzatsalar,  
Qadri ortar edi har yengan cho'g'ning.

\*\*\*  
Bu yo'lda biz necha qo'rg'ondan o'tdik,  
Adirlar, qumlardan, darg'ondan o'tdik.  
Shoshmay, lekin qaytmay, haq deb har doim,  
Bizdan ancha oldda borg'ondan o'tdik.

\*\*\*  
Taning hech tinmasin o'rgangan ishdan,  
Ko'ngling — o'zi suygan, o'rtangan ishdan.  
Aqling elab tursin bori olamni,  
Shunda umring tinmas yangilanishdan.

\*\*\*  
Shimolda biz yozdan xazonga tushdik.  
Bu — janub. Yana «Yo'ramozon!»ga tushdik.  
G'arbga ketdik — tubsiz qozonga tushdik.  
Sharqqa yurdik, yana ozonga tushdik.

\*\*\*  
Sen meni yolg'onchi deding, ey ahmoq,  
Shu so'zdan o'lshim bilibsan biroq.  
Haq deb jon berurda, sening maqsading  
Yolg'onchi dunyoda ko'proq yashamoq!

\*\*\*  
Dehqon o'z xirmonin ko'rmasin hech kam,  
Do'stlar yig'ilsinlar erta ham, kech ham.  
O'z yer, o'z joyida yashasin ellar,  
O'z erkin boshqadan so'ramay hech ham!

SEN FAQAT MENING BO'L

Ko'p kezma daraxtzor bog'lar ichinda,  
Daraxtlar dil do'sting bo'lolmas sening,  
Chorlasang kelolmas, yonib qucholmas,  
Sen faqat mening bo'l, meniki, mening.

Ko'p qolma jarang suv buloq bo'yinda,  
Buloq ham dil do'sting bo'lolmas sening,  
Qaynashim chashmadan teran joydandir,  
Sen faqat mening bo'l, meniki, mening.

Ko'p titma muhabbat kitoblarini,  
Kitoblar dil do'sting bo'lolmas sening,  
Bu ishning tarixi mening qalbidam,  
Sen faqat mening bo'l, meniki, mening.



**?** – Xususiy maktab ochmoqchi edim. Buning uchun qanday talablar bor?

**Zarifbek Shodmonov, Oltinko'l tumani**

– Avvalo, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziya olishingiz lozim. Buning uchun ariza, yong'in va sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarining xulosalari, pedagog kadrlar haqida ma'lumot, o'quv rejasi va dasturlarining elektron nusxalari, ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziya davogari tomonidan yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasini davlat xizmatlari markazlariga taqdim etishingiz yoki elektron shaklda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga yuborishingiz lozim.

**Farhod Yusupov, huquqshunos-maslahatchi**

**?** – Iste'mol krediti olmoqchi edim. Lekin doimiy ro'yxatda turgan joyimda yashamayman. Shunday holatda ham kreditni rasmiylashtirishim mumkinmi?

**Daniya Akbarova, o'qituvchi**

– Ha, mumkin. "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, fuqaro yashash joyidan qat'iy nazar, jismoniy shaxs sifatida iste'mol krediti olish uchun o'zi tanlagan bankka murojaat qilishga haqli.

**Yuristlar maslahati rasmiy telegram kanali**



**?** – Shaxsiy ishlarim sabab, o'g'limni bir hafta maktabga jo'nata olmadim. Sabab ko'rsatadigan hech qanday hujjatim ham yo'q. Buning uchun maktab ma'muriyati meni jarimaga tortmoqchi. Bu qanchalik qonuniy?

**Zarina Timirbayeva, Samarqand shahri**

– Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasiga ko'ra, bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdori (330 000) ning o'n baravari (3 300 000) dan o'n besh baravari (4 650 000) gacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Axborot xizmati**

**?** – Ishxonamizda oylik maoshning 50 foizi oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'lanadi deyishyapti. Qonun bo'yicha shu to'g'rimi?

**Saidzim Toshev, Farg'ona viloyati**

– Yo'q, to'g'ri emas. Vazirlar Mahkamasining "Ish haqini natura shaklida to'lashni tartibga solish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, mehnatga natura shaklida haq to'lanishi xodimning yozma roziligiga asosan ish beruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan va yetishtirilgan oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitob qilish belgilangan. Bunda ish haqining natura shaklidagi umumiy summasi 30 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

**Lex.uz qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi**



– Jazirama kunlarda favvoralarda ham cho'milayotganlarni uchrataymiz. Bu salomatlik uchun xavfli emasmi?

**Nusrat Qilichev, Yangiyo'l tumani**

– Albatta, xavfli. Favvoralarining suvi maxsus cho'milish havzalariniki singari tez-tez almashtirilmaydi va zararsizlantirilmaydi. Shu bois, issiqda ularda mikroorganizmlar tez va oson ko'payadi. Oqibatda favvorada cho'milish o'tkir virusli ichak infeksiyalari, gepatit (A, Ye), ichburug', ichterlama, lyamblioz kabi kasalliklarning paydo bo'lishiga hamda teri kasalliklarini keltirib chiqaruvchi stafillokokk, streptokokk, enteroviruslar va boshqa mikroblarni yuqtirib olishga sabab bo'ladi. Qolaversa, suv ostida turli kommunikatsiya va yoritish moslamalari o'rnatilgan bo'lsa, konstruksiyalarga qoqilib, jarohat olish xavfini ham oshiradi.

**Dilorom Tursunova, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi**

**Tayinlov**



Prezident Shavkat Mirziyoyevning tegishli farmoyishi bilan AOKA Mass-media bilan ishlash va uni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Gulruxor Xatamova Prezident Administratsiyasi jamoat fikrini o'rganish va tahlil qilish sho'basini mudiri lavozimiga; AOKA Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Lolaxon Jabbarova Prezident Administratsiyasi jamoat fikrini o'rganish va tahlil qilish sho'basini bosh konsultanti lavozimiga tayinlandi.

**Tashabbus**

**YOSHLAR KUTUBXONASI – CHINAKAM ZIYO MASKANI**

Xorazm viloyati Urganch shahrida tadbirkor Shahnoza Abdullayeva tomonidan Yoshlar kutubxonasi tashkil qilingan.

Bugungi kunda shahar yoshlarining, talabalarning sevimli maskaniga aylangan mazkur kutubxona yuz ming kitob fondiga ega va bu yerda o'zbek hamda jahon adabiyotining eng sara asarlari jamlangan.

Kutubxona bir vaqtning o'zida 200 nafardan ortiq kitobxonni o'z bag'riga sig'diradi. Eng zamonaviy shart-sharoitlarga ega ziyo maskani hamisha kitobxonlar bilan gavjum.

**Behzodbek SAIDOV**



O'tganlarning oxirati obod bo'lsin!

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi hamda gazetasi jamoasi partiya faoli Lola Saidovaga volidai muhtaramasi **MEHRINISO** ayaning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

**JAMOATCHILIK KENGASHI:**

**Alisher QODIROV** – kengash raisi

**Akmal SAIDOV,**  
**Abror PO'LATOV,**  
**Amiridin BERDIMURODOV,**  
**Akmal JUMABOYEV,**  
**Bahodir MAMATXONOV,**  
**Ilbom ABDULLAYEV,**  
**Ibrohim G'OFUROV,**  
**Iroda DADAJONOVA,**  
**Minhojiddin MIRZO,**  
**Nodir MUXTOROV,**

**Bosh muharrir:**  
**Mirodil ABDURAHMONOV**

**TAHRIRIYAT MANZILI:**

Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani,  
Maqsud Shayxozoda ko'chasi, 1-A-uy.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborida bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

**NAVBATCHI MUHARRIRLAR:**

Ravshan MAHMUDOVI,  
Mahbuba KARIMOVA  
**NASHR UCHUN MAS'UL:**  
Ma'murjon YULDOSHEV  
**NAVBATCHI:**  
Feruza XODJAYEVA  
**DIZAYN GURUHI:**  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonamanzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

**Elektron pochta:**  
mtiklanish@bk.ru /  
mtiklanish@mail.ru

ISSN 2010-7714



ISSN 2010-7714

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**Adadi** – 7 331.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.  
**Qog'oz bichimi:** A3. Hajmi: 4 bosma taqob  
Buyurtma: G – 716  
Bosishga topshirish vaqti 21.00.  
Topshirildi 2:20